

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA‘LIMI FAKULTETI

«Badiiy grafika va uni o‘qitish metodika» kafedrası

Mingboyev Farrux Abduvoyitovich

**QALAMTASVIRDA MANZARA ISHLASH VA UNI O‘QITISH
METODIKASI.**

«5110800- Tasviriy san’at va muxandislik grafika» yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko‘rildi va himoya
Qilishga ruxsat berildi
«Badiiy grafika va uni
o‘qitish metodikasi»
kafedrası kafedra mudiri:

katta o‘qit. Ergashev D.

Ilmiy rahbar: oqituvchi

_____ Oydinov Sh.
«___» _____ 2015 y.

Taqrizchilar:

oqituvchi: _____ N.J. Mullajonova

SamDAQI dosenti: _____ H.Jurayev

«___» _____ 2015 y.

SAMARQAND -2015

MUNDARIJA :

Kirish		3
I–bob. Qalamtasvir haqida umumiy ma’lumotlar		
1.1. Foydalanilgan manbalar va adabiyotlarning tanqidiy tahlili		13
1.2. Qalamtasvir hamda uning maqsad–vazifalari		18
1.3. Qalamtasvirda tasvirlash vositalari va ularni ishlatish haqida tushuncha		22
1.4. Tasvirlashni asosiy qonun- qoidalari va ahamiyati		31
Birinchi bob yuzasidan qisqacha xulosa		34
II bob Qalamtasvirda manzara ishalshning shakl va uslublari		
2.1. Tasvirlashning nazariy asoslari		35
2.2. Badiiy ta’limda qalamchizgilarning ahamiyati		37
2.3. Manzara ishalshda kompozisiyani ahamiyati		52
Ikkinchi bob yuzasidan qisqacha xulosa		63
Xulosa, taklif va tavsiyalar		64
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati		67
Ilovalar		

Kirish.

Bitiruv ishining dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatga, kasb–hunar ko'nikmalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona echimlarini topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini odilona baholay oladigan kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va kasb–hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq mantiqiy mushohada qilish tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir". Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim–tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo'lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy modelni" hayotga tadbiiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali, o'quvchilarning

iste'dodlari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"¹, – deb alohida ta'kidlaydi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining farmonlari, qarorlari ta'limning hamma sohasida islohatlarni o'tkazish talabi bilan yo'g'rilgan. Oliy ta'lim va san'at kollejlarida ta'limida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Umumiy o'rta ta'lim maktabini tamomlagandan keyin bolalar ikkinchi bosqich bo'lgan kollejni ham tugatishini majburiy qilib quydi. Bu o'z navbatida hamma fan o'qituvchilaridan ham katta ma'suliyatlar talab qilib, ta'lim - tarbiya sohasida inqilob bo'ldi.

Tasviriy san'at o'quv predmeti konsepsiyasi va oliy ta'lim, tasviriy san'at ta'limi uchun ham davlat ta'lim standarti yaratildi. Unda o'qitishning yangilangan dasturlariga amal qilish masalalari ko'tarilib birinchi navbatda kadrlarning bilim, kunikma va malakalariga e'tibor qaratilishi kerakligi aniqlandi. Oldingi an'anaviy dars tuzilishining o'rniga undan farqliroq mustaqil ishlarni ko'paytirib, bolalarning erkinligiga katta e'tibor qiladigan bo'lindi. Ma'lumki, kasb-hunar kollejlarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'z maqsad va vazifalari mavjud bo'lib ular naturaga qarab rasm ishlash, kompozisiya, san'atshunoslik asoslari bo'limlari orqali amalga oshiriladi.

Dars jarayonida talabalar ishlanayotgan rasm va haykalning tasvirlanayotgan narsaning asliga mos kelishini e'tiborga olishlari, rasm ishlashda barcha

ifodalanayotgan tasvirlarning asosiy bosh maqsadga buysundirilishini, bunda tasvirlashning eng ifodali yo'lini topa bilishni o'rganishlari zarur bo'ladi.

Naturaga qarab tasvirlash mashg'ulotlarida o'qituvchi bolalar e'tiborini tasvirlanayotgan obyektlarning nafis va go'zalligi, ranglarning ham ohangligi, shakl mutanosibligi, tasvirlanayotgan buyumlar orolig'idagi o'zaro mantiqiy bog'liqlik kabilarga qaratadi.

Tasviriy san'atda manzara kompozitsiya tushunchasi juda qadimdan rivojlanib kelayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Manzara kompozitsiya o'quv predmet sifatida qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb – xunarleri o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlarida manzara kompozitsiya talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun-qoidalarini xaqqoniy tasvirlash usullarini o'rgatadi.

Tasviriy san'atda manzara kompozitsiya qalamtasvir, soya-yorug', rang, havo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi.

Manzara kompozitsiyasi talabalarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgizishida katta ahamiyatga egadir. Manzara kompozitsiyasi suhbat, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan iborat. Manzara kompozitsiya asosiy qonun, qoidalari, usul va vositalari, talabalar tomonidan amaliy mashg'ulot va suhbatlar jarayonida mukammal o'rganiladi.

Shu sababli manzara kompozitsiya qonun-qoidalarini bo'lajak mutaxassislik soha egalari kelajak avlodga mukammal bilim berishda chuqur o'zlashtirishlari lozim.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Qalamtasvirda manzara chizish mavzusi kollej talabalariga ham o'rgatilishi nazarga olinib men bu mavzuga yaqin bajarilgan ishlarni o'rganib chiqdim.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslaridagi nazariy va metodik tomonlarini ko'plab rassomlar, olim va metodistlar ishlab chiqqan ekanlar.

Professor, O'zbekiston xalq rassomi M.Nabiyev, G'.Abdurahmanov, O.Qozoqov, L.Salimjonova kabilar natyurmort janrida ham ijod qilib kelgan va ijod qilmoqda. Respublikamizda rassomlardan S. Kolibanov, N. Kashina, Z. Kovalevskaya, Yu. Yelizarov, R. Axmedov kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari va A. Yunusov, A. Mirzayev kabi umidli yosh rassomlar yetishib chiqqan edilar.

Chet el rassomlaridan Sharden, Surbarn, Kalf, Snayders, K. Korovin, I. Mashkov, P. Konchalovskiy va boshqa natyurmortnavis rassomlar asarlarida hayotiy haqiqatni tasvirlab kelganlar. Mashhur rus rassomlari I. Xrutskiy, I. Repin, N. Kramskoy va boshqalar ona tabiatga, u yaratgan noz – ne'matlarga bo'lgan mehrlarini natyurmortda ifodalanganlar.

Narasaning o'ziga qarab rasm chizish masalalarining nazariy jihatlari bilan shug'ullangan olim pedagoglar ham ijod qildilar. Professor R.Hasanov, B.Boymetov, B.Azimova, A.Egamberdiyev kabilar o'z asarlarini yozib qoldirdilar. Rus rassom pedagoglaridan V.S.Kuzin, B.Nemenskiy, S.R.Rostovsev, S.S.Yusov va boshqalar o'zlarining metodik asarlarini yozib qoldirganlar.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish masalalari doimiy davom etadigan jarayondir. Har qanday mavzuda natyurmort chizish ham mumkin. Qalamtasvirda manzara ko'plab chizilgan. Ularning hammasi ham tasviriy san'at asarlari darajasiga ko'tarilib, ko'plab kitoblardan ham joy olgan.

Bu maktab va tasviriy san'at ta'limidagi tasviriy san'at predmetini o'qitishda narsaning o'ziga qarab rasmini chizish masalasini ham qamrab oladi. Bu masalalarda ko'plab olimlar ijod qilganlar. Bulardan p.f.d., professor R.Xasanov, professor M.Nabiyev, p.f.n., dosent B.Oripov, B.Boymetov, N.Oydinov, N.Tolipov, S.Abdurasulov, Q.Qosimov, B.Azimova, H.Egamov, D.Ergashevlarning ilmiy ishlari, metodik qo'llanmalari, kitoblari va ilmiy maqolalarida ham yoritilgan. Ularda qisman uning nazariy tomonlari hamda darslarni o'tish jarayonidagi dars ishlanmalari tarzida berilgan. Lekin, u ko'p emas, to'liqligicha berilgan ishlar kollejlarda uchun yaratilmagan. Ammo, natyurmort asarlari ko'plab yaratilgan bo'lsada bu muammo haligacha to'la o'z yechimini

topgan emas. Shundan kelib chiqib “Qalamtasvirda manzara ishalsh va uni o‘qitish metodikasi.” – mavzusini tanladim.

Maqsad va vazifasi

Tasviriy san‘at o‘quv predmeti konsepsiyasi va oliy ta‘lim, tasviriy san‘at ta‘limi uchun ham davlat ta‘lim standarti yaratildi. Unda o‘qitishning yangilangan dasturlariga amal qilish masalalari ko‘tarilib birinchi navbatda kadrlarning bilim, kunikma va malakalariga e‘tibor qaratilishi kerakligi aniqlandi. Tasviriy san‘atda fanida kasbga yo‘llash masalalari va ularning yechimlarini topish metodlarini talabalariga chuqurroq o‘rgatish.

Uslubiy asoslari - qalamtasvir, rangtasvir, amaliy san‘at sirlari, haykaltaroshlik, san‘at tarixi va san‘atshunoslik asoslarida ko‘rsatilgan bilim hamda malakalarini uslubiy jihatdan o‘rgata olish sirlarini bilishi kerak. Mashg‘ulot yoki dars o‘tishning turli usul hamda uslublari va o‘z ijodiy yondoshishlari. Talabalarga o‘quvchi yoshlarga nisbatan mexrli, hamfikir bo‘la olish hamda ularning psixologiyasini o‘rganib ta‘lim berishda to‘g‘ri yondasha bilish.

Dars – ta‘lim tarbiyani amalga oshirishning eng qulay, eng samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabxalarida bo‘layotgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma‘rifiy o‘zgarishlar barcha fanlar qatori tasviriy san‘at darslarida va metodikasiga ham yangi, zamonaviy talabalarni qo‘ymoqda. Bu talabalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

Darsda ta‘limiy-didaktik, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni to‘g‘ri qo‘ya bilish va ularni amalga oshirish;

Darsda ta‘limning faol usul va uslublarni qo‘llay bilish;

Dars jarayonida xalq pedagogikasi an‘analarini, jahon pedagogikasi, ruxshunoslik, san‘atimiz buyuk ajdodlarimiz o‘gitlari hikmatga to‘la xodisalarimiz, rivoyatlarimizdan unumli foydalanib borish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san'atda manzara kompozitsiyasi qonun va qoidalari insoniyatning ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Ibtidoiy davr odamlari hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Bunday holatni odam gavdasi va hayvonlarning tartibsiz, alohida tasvirida ko'rishimiz mumkin.

Mavzuning maqsadi manzara kompozitsiya asoslarini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti:

Rassom ustaxonasida ijodkor bilan hamkorlik manzara kompozitsiya asoslari va uning amaliyotda qo'llash usullarini o'rganish.

Manzara kompozitsiya qalamtasvir asoslari, buyum naturada perspektiva, yorug'-soya nisbatlarini tasvirlanishini amaliyotda o'rganish.

Tadqiqotning predmeti: kasb-hunar kollejlarining tasviriy san'at darslarida narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslari.

Amaliyotda tutgan o'rni:

Har qanday ijodkor o'tmishdagi qalamrangtasvir sana'ti ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiylatini xam o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysinish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E.Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «dog», oralik xarakter nusxa, imo-ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I.Repinning «Krestniy xod v Kurskoy gubernii» kartinasi bir qarashda yaxlit «dog» shaklida ko'rinadi.

Kompozitsiyadagi omma-xaloyiq tasviri diagonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Kartina nixoyatda ko'p sonli xaloyiq jamoa tasvirlangan bo'lib, xar bir kishi xarakteri salbiy, ijobiy obrazlar orqali va sinfiy qarama-qarshiliklar, xullas rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan alohida farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining marosimlari qonunlariga bo'ysundirilgan.

Qadimgi Misr san'atida kompozitsiyaning dastlabki yangi usullari namoyon bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotning ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirda chizgi, o'cham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarning tuzilishida, yil faslining ketma-ket kelishida simmetiya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relyef, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyalaridan unumli foydalanganlar. Uyg'onish davrigacha kompozitsiya faniga bag'islangan biror-bir nazariy qo'llanma yaratilmagan.

Zamonaviy tasviriy san'atda esa kompozitsiya qonun-qoidalarining qo'llanilishi yanada yangi ilg'or bosqichlarga ko'tarilib bormoqda.

Tadqiqotning metodlari:

Nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

Xozirgi vaqtda biz kompozitsiyaning nazariy asoslarini ikki guruxga ajratamiz: 1. Kompozitsiya qonunlari. 2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzysi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik xolati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementning oraliqda galma-gal qaytarilishidir. Asar g'oyasining kompozitsiya tuzilishi idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Uzoq kenglik ochiq manzarada gorizontal xolatda tasvirlansa, kenglik bepoyon, katta bo‘lib tuyuladi. V.Meshkovning “Ural haqida o‘ylar” manzarasi gorizontal uzun hajmda joylashtirilib tasvirlangan. Oldingi va orqa plandagi kontrast yorqin ranglar, yengil ufq chizig‘ masofani, bepoyon kenglikni aks ettiradi.

Kompozitsiyani gorizontal usulda ifodalashda tinch, osoyishtalik holatini sezamiz. Kompozitsiyani parallel, vertikal yo‘nalishda bo‘lishi tantanali, ulug‘vor, ko‘tarinki ruh holatini anglatadi. Bunga L.Abdullayevaning “Qo‘riq yer ovchilari” kartinasi misol bo‘lishi mumkin. Diogonal yo‘nalishi esa harakat xolatining kuchayishi yoki susayishini ko‘rsatadi. V.Surikovning “Boyarnya Morozova” kartinasida chananing harakatdagi yo‘nalishi, chopib borayotgan bola, hayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi haloyiq-omma pastki o‘ng burchakdan, yuqori-chap burchakka diogonal yo‘nalishda tasvirlangan. Asarda harakat yo‘nalishini o‘ngdan chapga susaygan holati masofaning chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

Tasviriy san‘at manzara kompozitsiyasining qonun-qoidalaridan foydalanish ibtidoiy davrdan boshlab shakllangan Tabiatga sergaklik bilan e‘tibor berib, barglar, shohlar, gullarning tuzilishini kuzatganlar, yil fasllarining takrorlanib kelishi, kun va tunning farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tushunib yetganlar. Masalan, qadimgi greklarning relyeflarida ritm aniq sezilib turadi. “Kompozitsiya” ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

Bunday o‘ziga xos metodik jixatlar keyingi mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar natijasi hisoblanadi.

Tadqiqotning ahamiyati:

Tasviriy san‘at manzara kompozitsiyasining qonun-qoidalaridan foydalanish ibtidoiy davrdan boshlab shakllangan Tabiatga sergaklik bilan e‘tibor berib, barglar, shohlar, gullarning tuzilishini kuzatganlar, yil fasllarining takrorlanib

kelishi, kun va tunning farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tushunib yetganlar. Masalan, qadimgi greklarning relyeflarida ritm aniq sezilib turadi. “Kompozitsiya” ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ijod - bu inson ongining yuqori va murakkab darajasidir. U insonning bilimi, malakasi, xayotiy tajribalari natijasida tug'iluvchi 'mo'jizadir. Tasviriy san'atda ijodning natijasi badiiy asar yaratilishidan iborat.

Badiiy ijodning mohiyati, ijod faoliyatining strukturaviy faktorlarga bo'linishi masalasida qiziqarli g'oyalar L.G.Ermashning o'tkazgan “San'atning ijodiy tabiati” tadqiqotida berilgan. Ijodning kuchi «ruxiy va amaliy qobiliyatlar» - bu mexnat, ilxom, xotira, tafakkur, badiiy talant, xayol, hissiyot kabilar yordamida amalga osha boradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida nafaqat manzara kompozitsiya bo'limi yoki uning mazmun mohiyati balki, kompozitsiyaning tasviriy san'atning barcha tur va janrlarida to'la mazmun sifatida ishtirok etishi xaqida ma'lumotlar jamlandi.

Natija va ilmiy farazi:

Yaxshi darsliklar, didaktik va metodik o'quv ko'rsatmali qurollar hamda texnik vositalar;

Guruhda yaxshi psixologik muhit bo'lishi;

O'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida o'zaro munosabatlar bo'lishi.

Umumiy pedagogik shart-sharoitlarga amal qilib, mavzuning didaktik maqsadini to'g'ri tashkil qilinsa darsning sifati yuqori va samarali dars ishlanma yaratiladi.

Ta'limning samaradorlik mezonini, uning xalqaro standartlar talabiga javob berishi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi davlat standarti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (2002-yil 21-fevral 54-sonli) buyrug'i bilan tasdiqlanib hayotga joriy qilinmoqda. Uzluksiz ta'lim

standartlarining davlat tizimidagi Oliy ta'lim talablari ishlab chiqilgan. Xamma fanlar qatori tasviriy san'at bo'yicha Davlat ta'lim standarti, qo'yilgan talablar maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan.

Tasviriy san'atda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari o'qitiladi. «Kompozitsiya» tasviriy va amaliy san'atning xamma turlari janrlarida mavjud bo'lib, asarning asosiy negizini tashkil etadi.

Kompozitsiya so'zi lotinchadan «Kompositio»- yani predmetlar bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlitda joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir.

Kompozitsiya o'quv predmet sifatida qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb – xunarleri o'quv rejalariga kiritilgan.

Natija va ilmiy faraz sifatida juda ko'p ma'lumotlarga asoslanib yangicha fikrlar taklif qilish o'rinsiz. Ammo, zamonaviy innovatsion texnologiyalar texnikalari kirib kelishi tasviriy san'atning yangicha tasvirlash usullarini paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli Zamonaviy tasviriy san'atni rivojlanishida kompyuter grafikasi sohasida ham mukammal mutaxassis sifatida rassom dizaynerlar faoliyat yuritisa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tuzilishi

Tuzilishi jixatidan ikki bob etita paragrafdan iborat. Har bir bob orqali bayon etilgan ma'lumotlar kelgusida olib boriladigan tadqiqot ishlari uchun manbaa bo'lib xizmat qiladi. Barcha paragraflarda ikki bobga doir muammolar, natijalar va mavzuga oid materiallarni aniq ketma-ketlik asosida analiz qilib chiqilgan.

1-BOB QALAMTASVIR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Foydalanilgan manbalar va adabiyotlarning tanqidiy tahlili

Tasviriy san'at darslarida narsaning o'ziga qarab rasmini chizishga oid adabiyotlar professor M.Nabiyev va B.Azimovaning "Natyurmort chizish va uni o'qitish metodikasi" (1976 yil) oliy o'quv yurtlarining badiiy grafika fakulteti talabalari uchun yozilgan o'quv qo'llanmasi yaratilgan. O'quv qo'llanmada turli ruzg'or buyumlari, geometrik narsalar, tarixiy va zamonoviy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarning ishlanish yo'llari ishlab chiqilgan. Lekin bu qo'llanmada musiqa asboblariidan tuzilgan natyurmortdan misol keltirilmagan. Dars ishlanma sifatida bosqichli ko'rinishlar berilmaydi. Xuddi shu kabi professor R.Hasanovning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" (2004 yil) nomli oliy ta'lim tasviriy san'at va muxandistlik grafikasi fakultetlari talabalari uchun darslik kitobida maktab dasturi asosida 1 soatlik dars ishlanma tarzda Qalamtasvirda manzara tuzish keltirib o'tiladi. Bu sodda va talabalar uchun turli yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Bu kitobda ham musiqa asboblariining tuzilishi va kompozitsiyasi kasb-hunar ta'limi dasturidagi emas. Professor B.Boymetov, S.Abdurasulovlarning "Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi", B.Oripovning "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" darsliklari oliy va kasb-hunar ta'limi talabalari hamda talabalariga darslik sifatida tayyorlangan. Bu darsliklarda ham Qalamtasvirda manzara tuzish tug'risida yetarli darsjada ma'lumotlar keltirilmagan. Shu kabi rossiya, chet el metodist olimlardan B.Nemenskiy, S.R.Rostovsev, V.S.Kuzinning tasviriy san'atda natyurmort mazmuni, metodikasi to'g'risida ma'lumotlar bor. Ammo keltirilgan musiqa asboblariidan tuzilgan natyurmortlar milliy musiqa asboblariidan berilmaydi. Shularning hammasini o'rganib mavzuni milliy Qalamtasvirda manzara tuzish va uning kompozitsiyasini ishlash metodikasini yaratishga harakat qildim.

1) 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga

alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi, U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi

2) B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqi nashriyoti", 2006. 28-b. Nizomiy nomidagi TDPU ning Ilmiy kengashi tomonidan naslrga tavsiya etilgan. Qalamtasvir nomli darsligida tasviriy san'atning asosi hisoblangan qalamtasvir fani bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni yoritilgan. Xususan, kitobdan qalamtasvirning nazariy asoslari, tasviriy san'atda perspektiva, kompozitsiya qonunlari, chiziqli konstruktiv qurilish, yorug'-soya qonuniyatlari, odam bosh suyagi va muskullarining plastik anatomiyasi, badiiy ta'limda qalamchizgi bajarishning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar o'rin olgan. Darslikda berilgan vazifalar talabalarning bilim va malakalarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga usulida ishlab chiqilgan.

3) Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiatyurasi. T., "O'zbekiston", 2006. 25-b. Ushbu kitob-albomda mamlakatimizda miniatyura san'atining yuz yillardan so'ng tiklanishi, mustqillik yillaridagi rivoji, bu borada erishilgan yutuqlar haqida misollar orqali hikoya qilinadi. Kitob o'quvchini Sharq miniatyura san'ati tarixi hamda yetishib chiqayotgan miniatyurachi san'atkorlar va ularning asarlari bilan tanishtirgani holda, ushbu soha mutaxassislari va O'zbekiston miniatyura rangtasviri bilan qiziquvchilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

4) B.T. Maxmudov. Rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009. 14-b. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va Dizayn institutining 2009 yil 25 martda o'tkazilgan Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Kompozitsiya tushunchasi va tajrobasining qisqacha tarixi, kompozitsiyaning asosiy

qonuniyatlari, kompozitsiyaning qoida, usul hamda vositalari, kompozitsion qonun-qoidalari va boshqalar yoritib berilgan.

5) S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009. 35-b. Unda amaliy va tasviriy san'atni o'rganish uchun kerakli bo'lgan rangshunoslikga oid bilim va tushunchalar keng yoritib berilgan.

6) 10. Boymetov B., Abdurasulov R., Nurtoev O'., Rajabov R. Tasviriy san'at. 5 – sinf uchun darslik. T.: “Ilm – Ziyoz”, 2014 yil. 86 b. Darslik tasviriy san'at dasturida berilgan soatlarni to'liq qamrab olgan holda yozilgan. Darslarning olib borilishi, ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari ko'rsatib o'tiladi. Rangli reproduksiya bilan bezatilgan va yaxshi tasviriy ko'rinishlar bor. Lekin darslarning zamonaviy o'qitilishi to'g'risida ma'lumotlar ko'p berilmaydi. Faqat dedaktik o'yinlardan, testlardan foydalanish haqida aytiladi.

7) R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2004 yil. 200-bet. Kitobida yangi pedagogik texnologiyada dars o'tish masalasiga qisman to'xtaladi. Unda ko'proq turli o'yin usullarini, krasvord, topishmoq suratlar haqida fikr yuritib uni dars jarayoniga olib kirish mumkin deydi. Bu metodik kitob tasviriy san'at ta'limida o'qiyotgan talabalar va o'qituvchilari uchun tayyorlangan. Bunda tasviriy san'at o'qitish metodikasining talablari va darslarni olib borish, tashkil etish, tarixi haqida fikr yuritilgan. Ko'pgina hollarda noan'anaviy darslar, ishlanmalar, krasvord, testlar ham keltirib o'tiladi.

8) B. N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. T., “ILM – ZIYO”, 2013. 98-b. O'quv-metodik qo'llanma Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Oliy o'quv yurtlarining «Badiiy grafika» va «San'at-shunoslik» fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi xususida ilmiy-amaliy tushunchalar

beriladi. Maktab tasviriyy san'at darslaridan tashqari mashg'ulotlar haqidagi ma'lumotlar ifodalangan.

9) M. Nabiyeu. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995. 22-b. Mazkur qo'llanma muallifning ko'p yillik pedagogik faoliyati hamda rangtasvir bo'yicha amaliy ish tajribalari asosida yozilgan. Qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda rangshunoslik fani asosida rangning fizik, kimyoviy, psixofiziologik va estetik xususiyatlari yoritilgan. Ikkinchi qismida esa tasviriyy san'atning asosiy turlaridan biri – rangtasvir texnologiyasini bilish metodikasining nazariy va amaliy jihatlarini bayon etilgan.

10) N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.44-b. O'zbekiston tasviriyy san'at tarixi, zamonaviy rassomlar ijodiy faoliyati, ta'lim muammolarini yechish borasidagi ilmiy-falsafiy risolalar hamda dastur, qo'llanma va ko'plab maqolalar bilan tanishilgan.

11) S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996. Qo'llanmada amaliy va tasviriyy san'atning nodir turlari haqida hikoya qilinadi. San'atimiz jilolari – rasm chizish san'ati, haykaltaroshlik, metalga qayta ishlash berish – kandakorlik, naqqoshlik, ganch va yog'och oymakorligi, kulolchilik, gilam to'qish kabi san'at turlari joy olgan.

12). R. Xasanov. Tasviriyy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009. 86 bet. Bu asarda tasviriyy san'atning asosiy manbalari haqida gap boradi. Tasviriyy san'atning paydo bo'lishi, turlari va janrlari to'g'risida atroflicha hikoya qilingan. Rassomlar va ularning asarlari tahlillari ham beriladi. Asarlarning rangli, rangsiz suratlari keltirib o'tilgan. Shuningdek grafika, rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik san'ati haqida fikrlarini bayon qiladi. Tasviriyy san'at tarixiy taraqqiyoti to'g'risida ham to'xtalib sharq va g'arb o'yg'onish davrini batafsil yoritib beradi.

13). O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001.4-98-betlar. O'zbekiston san'ati kitobi O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10-yilligiga bag'ishlanadi. Unda 1991-2010 yillardagi O'zbekiston san'atida erishilgan o'lgan yutuqlar haqida hikoya qilinadi. Kitobning 1 bobda me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atga bag'ishlangan. Me'morchilik qismida O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi faoliyati davomida qilingan milliy me'morchilik va shaharsozlik sohalaridagi yangi ufqlar haqida ma'lumotlar keng yoritilgan.

14) N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997. 53-b. Qo'llanmada tasviriy san'atning tur, janrlari va Ozbekiston hududida mavjud bo'lgan o'ziga xos tarixdan lavhalar hikoya qilinadi. Bir qator devoriy suratlar, haykallar kabi tasviriy san'at namunalari tahlil qilinib berilgan. Bundan tashqari talaygina rassomlarning ijodi, hayoti haqidagi ma'lumotlar bilan tanishsa bo'ladi.

15) S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011. 154-b. O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. O'quv qo'llanma pedagogika kollejlarning maxsus o'quv fani — «Tasviriy san'at metodikasi» dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada «Tasviriy san'at metodikasi» fanining maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot bosqichi va metodlari, mashg'ulotlarning mazmuni va metodikasi, sinfdan tashqari ishlar mazmuni kabi masalalar o'z aksini topgan. Shuningdek, pedagogika kollejlari talabalari uchun tasviriy san'at metodikasi va dars turlari hamda uning mazmuni haqida ma'lumotlar, o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari bayon etilgan.

Biz o'rgangan adabiyotlarning hammasida tasviriy san'atga oid bilimlar o'rganilgan. Adabiyotlarda tasviriy san'at tarixi uning ahamiyati, tasvirlash yo'li-yuruqlari ko'rsatilib o'tilgan. Tabiat ko'rinishlari juda ko'plab rassomlar ijodida

ifoda etilganini ko'rish mumkin. Lekin "Qishloq hayoti"ga oid korinishlarini rassomlar ijodida qalamtasvirda ishlangan asarlar kam uchraydi. Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy qismida Qishloq hayoti" mavzusida qalamtasvir kompozitsiyasini ifodalashga harakat qildik.

1.2. Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari

Qalamtasvir– barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarini yaratishda ushbu qoralamalar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinlarga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san'at asari ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib–kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinchi** "**Rangtasvir qonunlari**" nomli asarida ta'kidlaganidek, *yoshlar o'zlarini ilm–fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.*

Qalamtasvir bakalavriat talabalarining, I–IV kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda talabalarga nazariy bilim berish g'oyat muhim. Bu bilim bo'lajak

pedagoglarning institutni tugatgandan so'nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko'nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san'ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o'ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak.

Bo'lajak pedagog-iassomlarni buyuk rassomlar, tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati, bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish hamda ulardan nusxalar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega. 1-rasm. Qalamtasvir mashg'udotlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi eng asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'zaro nisbatlari.
4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug' va soya qonuniyatlari.
6. Tasvini metodik ketma-ketlikda **analiz va sintez** qilib to'g'ri bajarish. 2-rasm.

Bu ko'nikma va malakalar talabaning, oliy o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olishi vaqtida, o'quv mashqlarini bajarishi orqali rivojlanadi va takomillashib boradi.

Tasviriy sanat har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallaydi. Shu sababli akademik surat ishlash bilimi tasviriy faoliyatning barchasida qo'l

keladi, muvaffaqiyatni ta'minlaydi. qalamtasvir ishlashga va uni o'z manaviy hayotida foydalanishta odamlar qadimgi paytlardanoq intilib kelganlar. Shu sababdan ham rasm chizishning ma'lum qonun-qoidalarini ishlab chiqilgan va yillar, asrlar mobaynida takomillashtirilib kelingan. Qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi, negizi desak xato bo'lmaydi. O'quv-mashq vazifalarni puxta, ifodali qilib tasvirlay olish akademik rasm qonun-qoidalarini atroflicha ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. ular ish faoliyatini sifatli tashkil etilishiga ham ko'p tomondan bog'liqdir. Bundan tashqari chizishda ishlatiladigan asbob-anjomlar sifatli, talabga javob beradigan bo'lishi kerak. qalamtasvir ishlashning eng asosiy talabi chizish ob'ektini har tomonlama o'xshatib aks ettirishdop iborat faoliyatni ta'minlashdir. Buning uchun tasvirni qog'oz satHida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarini to'ri aniqlash, buyumlarning o'zaro masofasini va perspektiva holatlrini aniq topish talab etiladi. Ishning maqsadga muvofiq chiqishida albatta bilim, tajriba va mahorat etarli darajada kerak bo'ladi. Bilim o'qish, o'rganish, mutolaa qilish orqpli orttirilsa, tajriba va mahorat ko'p ishlash, tinmay mashq), intilish evaziga orttrilishi ma'lum.

Ta'lim olishning yana bir muhim sharti har bir tasvir etiladigan narsa, hodisa, laihani aslidan, ya'ni naturadap qarab aks ettirilishiga juda bog'liq ekanligi sir emas. Chumki chizishdl hayot haqiqatini ko'rsata olish pifati eng muhimdir desak aslo yanglishmaymiz.

Tasvir chizishni o'rganish oddiy natyurmortlarpi, shuningdek alohida-alohida turgan buyumlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Ish tesvirni qog'ozga to'g'ri va chiroili tarzda joylailirishdan boshlanadi, so'ng har bir narsani o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlar aniqlildi. Bunda qalam engil, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak. Aks holda moto'g'ri chiqqan joylar va yordamchi chiziqlarni o'chirg'ich bilan ketkazish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'rtacha yumshoqlik darajasidagi «TM», «M», «2M» rusumli qalamlardan foydalanish apcha qulay.

Tasvirlarni ishlashda perspektiva qoidalariga amal qilinishi zarur.

Ma'lumki' har bir narsa boshqa narsadan uzoqroqda turgan bo'lsa, u ko'zimizga kichrayib ko'rinadi, tarxlari ham hiraroq bo'ladi, unga tushayotgan yorug'lik, soyalar ham birinchi plandagi buyumnikidan farqlanib turadi. Bularning hammasi chiziqli va havo perspektivasi hodisasining tabiatda namoyon bo'lishidir. Ana shu jihatdan to'g'ri aks ettirilsa tasvir Haqqoniy chiqishi ta'minlanadi. har bir narsa qog'ozda tasvirlanar ekan, albatta uning turishiga nisbatan ufq chizig'i topib olinishi kerak. U chizuvchi kishining ko'zi balandligidan o'tuvchi tasapvur etiladigan gorizontal to'g'ri chiziqni tashkil etadi.

Natyurmortlarda uni to'g'ri aiiqlab olib tasvir yaragishd! foydalanish zarur shartlardan asosiysi bo'lib, tasvirning haqqoniy chiqishni ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizontal satHga va vertikal kartina saghiga nisbatan holati ham perspektiva ko'rinishiga muvofiq topiladi. Bunda tomonlarning qisqarib, uzoqlashib borgan sari qisqarib ko'rinishi ufqning tutashish nuqtasiga asosan topib chiziladi.

Tasvir yaratishda fazoviy perspektivaga ham ahamiyat berilishi zarur. Chunki yaqinda joylashib turgan buyum uzoqroqdagisidan tusi, rangi, to'q-ochligi bilan ajralib turadi. Soya-yorug'liklarni tasvir tarxlariga monand o'xshatib aks ettirish ular o'rnini to'fi mutanosib topishga ham bog'liqligini uiutmasligimiz kerak.

Natyurmortlarda manzara tasvirlariga nisbatan perspektiva qoidalarini qo'llash murakkabroq, chunki buyumlar, narsalar orasidagi farq, masofalar kamroq bo'lib, ular diqqat bilan kuzatilib aniqlanadi. Manzara, tabiatdagi perspektiva esa yaqqolroq seziladi. Masalan, tekis yo'nalgan temir yo'lni kuzatsak bu hodisa aniq ko'rinadi. Undagi relslar uzoqlashgan sari bir-biriga yaqinlashib, ufqqa borib birlashib, nuqta bo'lib ikki tomondagi sim yog'ochlar tobora kaltalashib borayotgandek tuyulishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu hodisani kuzatib perspektiva qonuniyatlarini anglab olish, tahlil qilish, tegishli bilimlarni olish mumkin.

Rasm chizish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etilishi tasvir yaratishning eng muhim pedagogik hajmiga. ifodasiga ham, har bir narsaning

o'zi mavjud bo'lib turgan atrof muhitiga ham ob'ektiv tarzda yoidoshilishi haqqoniy tasvirlanishi kerak.

1.3. Qalamtasvirda tasvirlash vositalari va ularni ishlatish haqida tushuncha.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda, qalamtasvir mashg'ulotlarining, amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi – perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash – fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: “Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan–bu yergacha”.

So'z – tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib, to'g'ri chizishda eng muhim jihatlardan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash odatini shakllantiradi.

Ma'lumki, tasviriy san'at atrof–muhitni keng va atroflicha o'rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali o'rganiladi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tabiatni qanchalik ko'p sevs va kuzatib o'rgansa, u tasvirlash sohasida shunchalik yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Uyg'onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o'rganganlar va o'z asarlarida ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Alberti va Dyurerlar inson tanasi a'zolarining har bir bo'lagini aniq o'lchamlarda o'rganib, o'z tasvirlarida amalda qo'llaganlar. (3–rasm)

Ular inson qomati yoki portretini tasvirlashdan oldin uning tuzilish xususiyatlarini, xuddi anatom tadqiqotchidek, asosli o'rganganlar va natijada jahonga mashhur san'at asarlarini yaratganlar.

Qalamtasvir mashg'ulotlarida buyumlarning hajmini to'g'ri va haqqoniy tasvirlash, oddiy qalamda amalga oshiriladi. Rangtasvirdan farqli o'laroq, bu vazifa ancha mushkul bo'lib, talabalardan qalamtasvir borasida ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Shuning uchun, talabalar turli hajm va shaklga ega buyumlarning yorug' va soyalarini tasvirlayotganda buyumlarning hajmi va shakli asosida ish yuritishi taqozo etiladi. Bunda talaba buyumga tushayotgan yorug', soya, yarim soyalarni, yengil chiziqlar bilan bir tekisda chizishga va chiziqiar tortishda ularni dona–dona bajarishga e'tibor berishi kerak. Buyumga yorug'lik qanchalik tik tushsa, uning tasviri shunchalik yaqqol ko'rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda urilib, bajarilayotgan tasvir xiraroq bo'lishiga olib keladi. Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib), ikkinchisiga va uchinchisiga tiishishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- a). yorug'lik;
- b). soya;
- s). yarim soya;
- d). aks;
- e). yaltiroqlik.

Yorug'lik– quyosh yoki sun'iy yoritgichning buyum yuzasiga tik tushuvchi nuridir.

Soya – buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoni (teskarisi), yorug'lik nurlari tushmagan yeri.

Bunday soyalar **shaxsiy soya** deb ham yuritiladi. Tasvirlashda tushuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to‘shishi natijasida hosil bo‘ladi.

Bunday soyalar buyum tekisligiga, (stol, pol, yer va hokazo) hamda buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumga qiyaroq tushuvchi yorug'lik, ularda **yarim soyalarni** tashkil etadi. Yarim soyalar, asosan, yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismda joylashadi. Shuning–uchun soyalar bir xil to‘q tusda bo‘lmaydi. Buyumlarning hajmlarini soya va yarim soyalar orqaligina to‘g'ri tasvirlash mumkin. Buyumlarga urilish natijasida qaytib, boshqasiga tushuvchi yorug'liklar **aks yorug'likni** hosil qiladi.

Aks yorug'lik predmetlarning bir–biridan qanday masofada joylashganiga ko‘ra kuchli yoki kuchsiz bo‘lishi mumkin. Lekin hech –qachon aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan koichli bo‘lmaydi.

Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik** hosil bo‘ladi. Bu holat shisha, chinni, temir, sopol va yorug'likni qaytarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa ko‘pgina buyumlarda kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o‘quv qalamtasvirida yorug' va soyalar qalamda yengil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziqlar tasvirlanayotgan buyumning xarakteri va yorug'likning tushish yo‘nalishi bo‘yicha dona–dona, aniq bo‘lishi kerak. Bunday ishlangan tuslar buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqqol ko‘rsatadi. Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuqroq, bir–biriga yaqin (birlashib ketgan) bo‘lishi kerak. (11–rasm)

Geometrik shakllarni tasvirlashda ularning tuslariga e'tibor berish darkor. Oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, 2– va 3– qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda tasvirlanadi. Bu, o‘z navbatida, buyumni haqqoniy (fazoyiy perspektiva qonuniga asosan) tasvirlashda g'oyat muhimdir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, buyumning hajmi asosida ishlash – buyumni to'laqonli hajmli tasvirlash omilidir. Pala–partish, duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi. (12,13, 14–rasmlar.)

Buyumlarning hajmini chizishda chiziqlarni tortish ketma–ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo'lishiga e'tibor berish – buyumni to'g'ri chizishda katta ahamiyatga ega. Dumaloq (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni chizishda chiziq tortish ellips shaklida bajariladi. (15– rasm.) Sferik buyumning eng quyuq soya joylari uning ekvatoriga yaqinlashgan joyida bo'ladi. (16–17–18–rasmlar.)

Shuni doimo yodda tutish kerakki, shakllarning yorug' va soya uchrashgan(yaqinlashgan) qismida soyalar to'q bo'ladi. (12– rasm.)

Yorug'–soya qonu–niyatlarini tasvir–lashchda aniqlikni talab etadi. Fizik olimlarning tadqi–qotlari shuni ko'rsat–diki, yorug'lik buyum va narsalarga ma'lum hajmlar qonuniyati asosida tushadi. Talaba quyida– g'ilarni doimo o'z tasviriy faoli–yatida bilishi va qo'llashi lozim:

a). yorug'lik manbaiga yaqin turgan buyumda yorug' va soyalar har doim kuchlidir; aksincha, buyum yorug'lik manбайдan uzoqlashgan sari, soya – yorug' kuchlari ham umumiy lashib,xira ko'rinadi. Buyumlar tasvirda aniq bo'lishi uchun yorug'lik manbaiga yaqin turganlarini keskin yorug' soyalar orqali bajarish, uzoqda joylashgan buyumlarni esa umumiy tarzda chizish tavsiya etiladi; (13– rasm.)

b) buyumning turni to'sishi natijasida u yoki bu tekislikka tushuvchi soya har doim shu buyumning o'z soyasiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun tus jihatdan to'q bo'lgan buyumni yorug'likning to'silishi natijasida tushuvchi soya bilan solishtirish va tushuvchi soyani to'qroq tasvirlash kerak.

Yuqoridagilardan ko'rinib turib– diki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituv–chisi tasvirlashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, uning nazariy tomonlariga ham e'tibor berishi lozim.

O'tmishda usta rassomlar tabiat–dagi yorug'–soya qonuniyatini izchil kuzatganlar va o'zlarining amaliy ishlarida muvafaqqiyat bilan qo'llay bilganlar.

Jumladan, Leonardo da Vinchi shunday deydi: «To‘q tusli buyumda hosil bo‘luvchi aks yorug‘lik doimo ochroq tusedagiga nisbatan aniq va yaqqol ko‘rinadi».

Ba'zi tasviriy san'at amaliyotchilarining fikricha, tasviriy faoliyatdagi ilmiy asoslar talabani ijodiy yo‘nalishiga to‘sqinlik qilar va salbiy ta'sir ko‘rsatar emish. Ularning ta'kidlashicha, agar talaba tasvirlashning ilmiy jihatlari asosida ma'lum vazifani bajarsa, tasvir ham bir xil darajada bo‘lar ekan. Ushbu tushuncha noto‘g‘ri

ekanligini quyidagi misolda ko‘rsatib o‘taylik. Talabalar natyurmort qalamtasvirini boshlang‘ich bosqichidan to oxirigacha pedagog nazoratida, uning bevosita ko‘rsatmalari orqali bajarsalar ham, vazifa tugal holatga kelganda har bir ish chizish uslubi va emotsional jihatlari bilan bir–biridan keskin farq qiladi.

Ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, qalamtasvir mashg‘ulotlarini o‘tishda ayrim pedagoglar qalamtasvirning ilmiy asoslariga, perspektiva qonunlariga, plastik anatomiya va yorug‘–soylar nazariyasiga yetarli e'tibor bermaydilar.

Oqibatda talabalar ushbu qonun–qoidalaridan bexabar qoladilar va amaliy vazifalar puxta bajarilmaydi. (14– rasm.)

Oliy o‘quv yurti o‘qituvchisining asosiy vazifasi – talabalarga mutaxassislik fanlari: rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va aynigsa, qalamtasvir borasida amaliy hamda nazariy bilim berib, umumta'lim maktablari uchun yuqori malakali mutaxassis o‘qituvchilar tayyorlashdir.

Qalamtasvir mashg‘ulotlari uchun maxsus o‘quv xonasi (ustaxona) bo‘lishi lozim. Bu ustaxona muayyan talablarga javob berishi zarur. Model tusini yaxlit ko‘rishga xalaqit bermasligi uchun, quyosh nuri o‘quv xonasining o‘ng yoki chap tomonidan tushishi maqsadga muvofiq.

Qalamtasvir uchun mo‘ljallangan o‘quv xonasining devorini och kulrangga, shiftini oq rangga bo‘yash tavsiya etiladi. Bunday xonada naturaning soyasi yaxlit ko‘rinadi. Mashg‘ulotlarda natura yonidan (chap yoki o‘ng) yoki yuqoridan

yoritilsa, buyumlarning shakli aniq ko‘rinadi. Maxsus elektr yoritgichlar (safit) turli tusdagi soya – yorug' berish imkoniyatini yaratadi.

Qalamtasvir ishlash uchun maxsus ish qurollari zarur. Barcha kurslarda talabaniy amaliy mashg'ulotlar bajarishida, ular zaruriy ashyolar hisoblanadi. Ular quyidagilar: qog'oz, qattiqligi va yumshoqligi turlicha bo‘lgan turli grafik qalamlar, guash va akvarel bo‘yoqlar, yumshoq va yassi shakldagi mo‘yqalam, o‘chirg‘ich, rasm taxtasi (planshet) va molbert.

Rasm chizishda *qog'oz* asosiy material hisoblanadi. Qog'oz, albatta, oppoq, yetarli darajada qalin va pishiq bo‘lishi kerak. Ulardan eng yaxshisi – "vatman" deb nomlanuvchi qog'ozdir. Akvarel bo‘yog'ida ishlash uchun vatman qalin vayuzasi g'adir–budur bo‘lishi kerak, agar yupqa bo‘lsa, u suvni tez shimib olib, ivib ketadi, natijada bo‘yoq yoyilib ketadi. Shu bilan birga "yarim vatman" qog'ozini ham qo‘llash mumkin. Hozirgi kunda ko‘plab qog'oz turlari mavjud. Qog'oz kashf etilgunga qadar odamlar yaproqlar, g'ishtlar va g'or devorlari, toshlarga rasm chizishgan.

Qadimgi Misrda papirus yaproq– lariga chizishgan. Qadimgi Pergam davlatida hayvon terisi qog'oz o‘rnini bosgan. U "pergament" deyilgan. Lekin bunday "qog'oz"lar juda ham qimmat bo‘lgan, chunki bitta kitob uchun kamida bir necha yuz mol terisi ishlatilgan.(30-rasm)

Qog'oz II asrda xitoyliklar tomonidan kashf etilgan. Bu qog'oz matoning mayday bo‘laklaridan tayyorlangan. Hozirda esa qog'oz maxsus qog'oz fabrikalarida ishlalib chiqariladi.

Oddiy qora qalam. Hozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko‘pturlari mavjud. O'rtacha yumshoq qalamlardan tortib, juda qattiq qalam turlari mavjud. Bular; "T", "2T", "N", "2N", "M", "2M", "3M" yoki V, T, 2T, M, 2M, N, 2N, NV, V, 2V va boshqalar. Tarixga nazar tashlasak, ibtidoiy davrda odamlar g'orlarga, tog'–u toshlarga turli tasvirlar chizganini ko‘rish mumkin. Ular biron–bir uchli, qattiqroq narsa bilan g'or devorlarini tirnab, turli shakllarni yasashgan.

Taraqqiyot tufayli rasm chizish asbob–uskupalari ham takomillashib bordi. Oddiy qora qalam ham shular jumlasidan. XVI asrda Angliyada grafit konidan topilgan tayoqchalarda rasm chizib ko‘rishgan, shunda ular qog‘oz yuzasida juda nafis va chiroyli chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi ma‘lum bo‘lgan. Oddiy qora qalam XVII asrning oxirida fransuz olimi N.Kante tomonidan kashf etilgan.

“T” harfi bilan belgilangan qalaanlar "Твёрдый"– qattiq degan ma'noni anglatadi. Odatda gips buyumlarga rasm chizishda qattiq qalam qo‘llaniladi. "M" belgisi "Мягкий"– yumshoq degan ma'noni bildiradi va undan ko‘proq xomaki chiznialar yoki kompozitsiya eskizlari tayyorlashda foydalaniladi.

Ko‘mir tayoqchalar. Ko‘mir tayoqchalari xomaki tasvir chizishda ko‘proq ishlatiladi. Ko‘mir tayoqchalarini uy sharoitida ham tayyorlasa bo‘ladi. Ko‘mir tayoqchalarini tayyorlashning oddiy usuli quyidagicha: buning uchun tok yoki atirgulning qizarib, yaxshi pishgan novdasidan 5–10 tasi bo‘yiga 10–12 santimetr (diametri 8–9 millimetr) qilib kesib olinadi. Biron mahsulotdan bo‘shagan temir idish(banka)ni olib, ichini yaxshilab tozalab, quritib qo‘yamiz. Bu idish ichiga tok novdalarini tik holatda joylab, idishni qum bilan to‘lg‘azamiz. Og‘zini loy bilan qalinroq qilib suvab, kichikroq bir teshikcha qoldirish shart. Keyin tandir yoki o‘choq oloviga qo‘yib, qizdiramiz. Gho‘qqa bo‘y harohar ko‘mib qo‘ysak ham bo‘ladi. (30– rasm)Temir idish qizishi davomida qoldirilgan teshikchadan olovsimon ko‘kish tutun chiqa boshlaydi. Ko‘kish tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho‘g‘dan) olish kerak. Tayyorlangan ko‘mir qalamcha bilan qog‘oz yuzasiga tasvir tushirish mum–kin. Tasvir o‘chib ketmasligi uchun ozgina shakar eritilib, qog‘ozdagi tasvir ustiga yengil purkaladi. Shu narsani unutmaslik kerakki, tok qalamchalari juda zich holda joylashishi kerak. Ularning hammasini bir–biriga zich qilib bog‘lab qo‘ysa ham bo‘ladi. Ota–bobolarimiz bunday qalamchalardan kulolchilik ishlarida foydalanishgan. Rossiyada esa oq qayin daraxtining shoxchalaridan foydalanishadi. Zavodlarda esa 3000° issiqlikdagi havosiz joyda 3 soatdan 5 soatgacha qizdirish orqali ko‘mir qalamchalari tayyorlanadi.

Akvarel bo'yog'i– suvda osongina eriydi. Uning tarkibida bo'yoq mod–dasi (o'simlik yoki minerallarning mayih qilib yanchilgan kukuni) va bog'lovchi modda–olcha yelimi, glit–serin va ozroq asal bo'ladi. Akvarel bo'yog'i nafisligi va rangining tiniq–ligi, yorqinligi, uyg'un ko'rinishi bilan ajralib turadi, hatto, bir rangning ustidan ikkinchisi surilganda ham avvalgi rang sezilib turadi va qo'shilish natijasida yangi rang hosil bo'ladi.

Guash bo'yoqlari–ham suvda yaxshi eriydi, ammo u akvarel bo'yo–g'i singari tiniq emas. Guash bo'yoq–lari ishlatilganda (bir rangning usti–dan boshqasi berilganda) avvalgi sur–tilgan rang butunlay ko'rinmaydi. Guash bo'yog'i tez quriydi, ammo qu–yoshda ko'proq tursa, uning rangi xiralashib qoladi.

Mo'yqalam. Bo'yash uchun mayin mo'ynali, yumaloq shakldagi mo'yqalamlardan foydalanish kerak. Ular yumaloq va yassi shaklda bo'lib, olmaxon, bo'rsiq, suvsar, quyon, tuya kabi hayvonlarning mo'ynalaridan tayyorlanadi. Sifatli mo'yqalam ho'llanganda qillari bir joyga yig'ilib, konussimon holatga keladi. Yumaloq mo'yqalam, akvarel bo'yog'ida foydalanniladi, yassi shakldagisi esa guash bilan ishlashda qo'llaniladi.

O'chirg'ich– Rasm chizishda yordamchi va ortiqcha chiziq va shtrixlarni o'chirish uchun yumshoq oqish o'chirg'ichlar ishlatiladi. Yumshoq o'chirg'ichning sifati, qog'oz yuzasidagi qalam izlarini shikast yetkazmay o'chirishi bilan aniqlanadi. Hozirgi kunda o'chirg'ichlarning turlari juda ko'p. Rasm chizganda ko'proq ko'kimtir va oq tusdagilari ishlatiladi. Qizg'ish tusdagi o'chirg'ichlardan tasvir chizganda foydalanilmaydi, chunki uning tarkibida "qumqog'oz" parchalari bo'lib, qog'ozni titib yuboradi. Keraksiz chiziqlarni o'chirishda o'chirg'ichni qattiq bosmaslikka, iloji boricha o'chirg'ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim. Oq o'chirg'ich qattiqroq bo'lsa, yumshatish uchun uni 2–3 kun mobaynida, kerosin yoki benzinga solib qo'yish kerak. So'ng o'chirg'ich qaynagan issiq suvga solinsa, yumshoq holatga keladi. Ish jarayonida o'chirg'ichni doim qo'lda ushlab o'tirish yaramaydi, chunki qo'l terlashi oqibatida, o'chirg'ich namlanadi va o'chirishda

rasmga shikast yetadi. Akvarel bo'yog'i bilan ishlash uchun rasm tayyorlashda iloji boricha o'chirg'ichdan kamroq foydalanish maqsadga muvofiq.

Planshet—Talabalarga rasm chizish uchun maxsus planshet tayyorlashni va vatman qog'ozni ho'llab tortishni o'fgatish lozim. Tayyorlangan yarim vatman qog'oz o'lchami planshetga nisbatan 2–3 sm kattaroq bo'lib, chetlari buklanadi. Buklangan tomonlaridan tashqari, qog'ozning ichki qismi mo'yqalam yoki bir parcha paralon bilan ho'llab chiqiladi. Qog'oz suvni o'ziga tortganidan so'ng, u planshet ustiga qo'yiladi va quruq buklangan tomonlari PVA yelimi bilan reykalarga yopishtiriladi hamda quritiladi.

Tajaba molbert oldida qanday o'tirishi, hamda qalamni qanday ushlashi kerakligi rasmda ko'rsatilgan. Molbert oldida egilmasdan, qalam ushlab turgan qo'lni, bukmasdan to'g'ri o'tirish talab etiladi.

Qog'oz yuzasida qo'lni bukmasdan buyumni tasvirlash ancha qulay. Iloji boricha xotirjam bo'lish va yengil harakat qilib, buyumdan ko'zni uzmagan holda tasvirlash zarur.

Qalam asosa uch barmoq bilan ushlanadi. Uni ushlagan vaqtda erkin ushlashga qo'lni o'rgatish kerak. (30–arasm). Qalamni qattiqroq yoki bo'shroq bosish orqali har xil chiziqlarni chizish mumkin. Tasvir chizganda qalamni bo'shroq ushlash kerak. Qalam uchi tasvir chizishga tayyorlanganda, uning grafit qismini 5–6 mm, yog'och qismini esa 15–20 mm qilib yo'nish kerak. Chunki bunday yo'nilgan qalam chiziqlarning aniq–ravshan ko'rinishiga yordam beradi. 30– a rasmda yumshoq qalamlarni ushlash yo'llari ko'rsatilgan. Bunday usul rasm chizish uchun eng maqbulidir.

Qalamtasvir mashg'ulotlari uchun maxsus o'quv xonasi (ustaxona) bo'lishi lozim. Bu ustaxona muayyan talablarga javob berishi zarur. Model tusini yaxlit ko'rishga xalaqit bermasligi uchun, quyosh nuri o'quv xonasining o'ng yoki chap tomonidan tushishi maqsadga muvofiq.

1.4. Tasvirlashni asosiy qonun- qoidalar va ahamiyati.

Perspektiva qonuni. Tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Masalan, (16–rasm) kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz. 19–rasmda temir o'li relslari, simyog'ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashini ko'rishimiz mumkin. Hayotda o'zaro parallel bo'lgan relslar hech qachon to'qnashmasalar–da, perspektiva qonuniga birioan, ular bizdan uzoqlashgan sari kichrahib, bir nuqtada tutashishini (18–rasm) ko'rishimiz mumkin. Hayotda o'zaro paralel bo'lgan relslar hech qachon to'qnash– masalar–da, perspektiva qonuniga birioan, ular bizdan uzoqlashgan sari bu holatni kuzatishimiz mumkin. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo'ladi.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin: ***"Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiva qonun va qoidalariga bo'ysunadi"***.

Perspektiva qonunlarini mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O'z navbatida, perspektiva qonuni haqqoniy tasvirlash "alifbo"laridan bo'lgan *"surat tekisligi", "buyum tekisligi", "ko'rish maydoni", "ko'rish nuqtasi", "ufq chizig'i"* kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassbm orasidagi bo'shliqqa aytiladi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushganda, rassomga buyumning u yoki bu qismi ko'rinadi. Shundan keyingina

rassom uni idrok etib, tasvirlashga o'tadi. **Surat tekisligi** rassom bilan natura o'rtasida vosita bo'lib xizmat qiladi. (20–rasm)

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyum joylashgan tekislikka aytiladi. Stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama buyum tekisligi vazifasini o'tashi mumkin.

Ko'rish maydoni va ko'rish burchagi chizuvchining ko'rish vaqtida tasvirlanayotgan buyumni qamrab olishidir. Tasvirlanayotgan ob'yekt uzoqlashib borgan sari ko'rish maydoni ham kengayibboradi, bu esa tasvirlanayotgan ob'ektning har-cha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi. (21 – rasm.) Lekin, ob'yektdan juda katta masofada turib, undagi hamma bo'laklarni va hajmlarni to'laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan ob'yektga yaqin masofada turib ham ushbu ob'yektning hamma qismlarini ko'z bilan ilg'ab olish mushkul. (22–rasm)

Tasvirlash jarayonida chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko'p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining 3 hissa ko'paytirilganiga teng masofada turib rasm chizadilar. (23–rasm) Masalan, inson qomatini to'laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan 5–5,5 metr masofada turishi kerak. Shundagina u tasviri to'laqonli tasavvur etib, vazifani aniq bajarishi mumkin. 22–rasmda daraxtni tasvirlash uchun chizuvchi undan qanday masofada turishi ko'rsatilgan, 23–rasmda tasvirda masshtablilikni ko'rishimiz mumkin.

Ufq chizig'i deb, ko'z balandligidan o'tadigan nurga aytiladi. Qog'ozni gorizontal holatda ko'zimiz darajasigacha ko'tarib, ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin.

1. Ufq chizig'idan yuqorida.
2. Ufq chizig'idan pastda.
3. Ko'zimiz nuri balandligida (ufq chizig'i balandligi darajasida).

Ufq chizig'i har doim ko'z nuri balandligidan o'tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko'tariladi, pastga tushsak ufq chizig'i ham pastga tushadi. 24–

rasmda ufq tekisligidan pastda joylashgan natyurmortning ko‘rinishi tasvirlangan. Quyidagi 25– rasmda esa, oddiy gepmetrik shakllardan biri bo‘lgan kubning ufq chizig‘idan pastda joylashgan holati va undagi perspektiv o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. 26– rasmda kitob javoni qavatlarining ufq chizig‘iga nisbatan holatlari ko‘rsatilgan.

Fazoviy perspektiva deb buyumlarning fazo (bo‘shliq) ta'sirida o‘zgarib (qisqarib) ko‘rinishiga aytiladi. Fazo–tiniq muhitdir, lekin uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o‘zgarishi mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o‘zgarishi, havodagi chang–to‘zon ta'siri, havo bulutli ekanligi va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan ob'ektning fazo bo‘shlig‘ida qanday joylashgani rang, nisbat, tus va undagi alohida bo‘laklarning (yaqqol yoki xira) ko‘rinishlariga keskin ta'sir etadi. (27–rasm)

Fazo perspektivasi ob'yektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligi (ertalab, kunduzi, kechqurun), yil fasllari (bahor, yoz, kuz) hamda atmosfera o‘zgarishiga (quyoshli yoki bulutli) qarab ham o‘zgaradi.

Fazo perspektivasining bir necha asosiy qoidalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Rassomga yaqin bo‘lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilari esa umumiy ko‘rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun, yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo‘shlig‘ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo‘lsa, shunchalik xira ko‘rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to‘g‘ri ko‘rsatish uchun, uzoqda joylashgan buyumlarni biroz yengil, oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar, fazoda yaqqol hajmli bo‘lib ko‘rinadi, uzoqdagilari esa xiraroq ko‘rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko‘rinadi. Fazo perspektivasini yanada kuchliroq

ko'rsatish uchun yaqin masofada yaqqol ko'rinib turgan buyumlarni aniq, uzoqdagilarini esa ochroq tusda tasvirlash darkor.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy, o'z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo'lib ko'rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomga yaqin masofada joylashgan; buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda, xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazo perspektivasining ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun juda muhim. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga talaba, qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo), amal qilishi shart.

Birinchi bob yuzasidan qisqacha xulosa

Manzara qalamtasvirning asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idrok etishni va taxlil qilishni, xayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy - pedagogik faoliyatga tadbiq qilishdir. Qalamtasvir amaliy xamda nazariy qismdan iborat.

Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashg'ulotlarni uy vazifalarini ongli ravishda bajarishni talab etadi. Kirish qismi qalamtasvirning asosiy qonun - qoidalari, usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'atning janr turlaridagi qalamtasvir o'ziga xos muammolarini, san'at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi.

II BOB. QALAMTASVIRDA MANZARA ISHALSHNING SHAKL VA USLUBLARI

2.1. Tasvirlashning nazariy asoslari

Chiziqli konstruktiv. Tasvirlanayotgan buyum sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u konstruktiv tuzilishga ega. **Konstruksiya** so'zi – tuzilish (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda bu qonunga amal qilishi lozim. Buyumni haqqoniy tasvirlash uchun uning chiziqli konstruktiv tuzilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Har qanday buyumni tasvirlashda chiziqli konstruktiv tuzilishga rioya qiling. Quyida uy jihozlari chiziqli konstruktiv usulni amalda qo'llagan holda, qanday yaxlitlikda chizilishini ko'rish mumkin. (27–a, b rasmlar).

Buyumning konstruktiv tuzilishini chizish uning asosiy qismlaridan yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi, chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlash perspektiva qonun– qoidalarig to'liq amal qilishni taqozo etadi. (27– rasm). Yuqoridagi rasmdagi gips ko'zaning hajmini to'g'ri chizish jarayonida buyumning asosi, bo'g'izi va yuqori qismi aylanalari, buyum– ning tekislikdagi holatiga asosan, perspektiv qisqarishini ko'ramiz. Demak, chiziqli konstruktiv tuzilish buyumning chekka qirralarini kontur chiziqlar bilan yengil tasvirlashni, bizga ko'rinar–ko'rinmas tomonlarini asosli ko'rsatishni taqozo etadi.

Buyumlar hajmidan tashqari, balandligi va eniga egadir, bunga **buyumlarning nisbati** deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil topgah qo'yilmaning o'z nisbatlaridan tashqari, katta–kichikligiga qarab, o'zaro nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, oddiy ko'zani olaylik. Uning balandligi eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun, qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda, rozetkaning kichik tomonining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab, rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda

belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqalar–ning o‘zaro nisbatlarini to‘g‘ri topish mumkin. 28 –rasm.

Hajm. Har bir buyum o‘z hajmiga ega, uning hajmi qirralari, balandligi, bo‘yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to‘g‘ri to‘rt– burchaklardan iborat bo‘lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir, egri chiziqlardan tashkil topgan bjiyumlar (shar, kpnus, silindr va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Bu shakllar kontur chiziqlar vositasida chiziladi. Buyum shaklini aks ettirishda kontur chizig‘ining ahamiyati katta. Buyumning tuzilishi, nisbatlari va boshqalarni tasvirlashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyum to‘g‘ri to‘rtburchakdan iborat bo‘lsa, (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmi to‘g‘ri chiziqlar vositasida chiziladi. Uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo‘lsa, hajm ellips, aylana shakllar orqali tasvirlanadi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash unga to‘g‘ri rang berish orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to‘g‘ri tasvirlashda ko‘pincha talabalar xatoga yo‘l qo‘yadilar. Talabalar kubning hajmini, yorug‘–soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun, kubning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Bu mutlaqo noto‘g‘ri. Tabiatda qirrali buyumlar bir–biridan tus jihatidan och va to‘qligi bilan farqlanadi. Kub yoki boshqa qirrali buyumlarning soya qismidagi qirrasi yorug‘ qismidagi yuzadan tus jihatdan kuchlroq ekanligi bilan xarakterlidir.

Dumaloq shakldagi buyumlar hajmi ellips, aylana chiziqlar orqali chiziladi. Dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi, tus jihatdan kuchliroq tasvirlanadi.

Qirrali buyumlarda bo‘lgani kabi, sharsimon buyumlarning chekkalari ham quyuq, konturda chizihnaydi. Uning turgan holatiga ko‘ra yorug‘ va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

Yevropa realistik tasviriy san'atidan farqli ravishda, sharq tasviriy san'ati o‘zining betakrorligi bilan ma'lum va mashhur. Chunonchi, ustoz Kamoliddin

Behzod tomonidan ishlangan Sulton Husayn Mirzo portretini olaylik. Ushbu portretning hajmdorligi yorug'–soya qonuniyatlariga va perspektiva qoidalariga rioya qilinib yaratilmagan bo'lsa–da, lokal chiziq va konturlar orqali rassom asar qahramonini mohirona tasvirlangan. (29–rasm).

2.2 Badiiy ta'limda qalamchizgilarning ahamiyati.

Qisqa muddatli o'quv va xomaki rasmlar chizish.

Xomaki rasm – odatda qisqa, ba'zan esa juda qisqa va o'ta cheklangan vaqt davomida, ko'p hollarda rasm chizuvchining o'ziga boqliq bo'lmagan xolatlarda bajariladigan predmet dunyosining umumlashtirilgan to'liqsiz tasviridir. Bunda ishni tezlashtirish maqsadida eng kam grafik vositalardan foydalaniladi.

Murakkab shaklni faqat uning asosiy, mayda ikir - chikirlarsiz tipik va o'ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmet dunyosining realistik tasvirini umulashtirilgan, deb hisoblamok kerak. Shuning uchun ham xomaki rasm ko'p hollarda "yaxlit, ko'zga ko'rinib turgan predmetning qism, bo'lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi".

Xomaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozisiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umulashtirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniladi. Shuning uchun o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmda boshlashdan avval o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng kerakli joyni tanlab olgandan so'ng asosiy ishga kirishishni maslahat beradilar. Chunki, xomaki rasm muvoffaqiyat bilan topilganda naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Chizgi – xomaki rasmga nisbatan ancha to'liq hisobdanadi. Lekin ba'zi hollarda u davomli o'quv rasmiga qaraganda ancha qisqa vaqt oraliqida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo'lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishlash vaqtini odatda rasm chizuvchining o'zi belgilaydiki, bu ushbu rasm

mazmuni, shuningdek uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga ko'yadigan talablariga boqliqdir.

Naturadagi chiziladigan chizgi xuddi xomaki rasmning detallar bilan boyitish kabidir. Naturaning qay holda yuzaga chiqarilishiga qarab chizgi xomaki rasm bilan davomli rasm o'rtasidagi oraliq bir vosita bo'lib qoladi. Boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, naturadan chizilgan xomaki rasm ishida o'sha naturadan davom ettirilgan ish sekin-asta chizgiga aylanishi mumkinki, bunda rasm ikir-chikirlariga batafsilroq to'xtaladi.

Xomaki rasm bilan chizgi o'rtasidagi farq u yoki bu rasmni chizish uchun sarflanadigan vaqtdangina emas, balki asosan ish usulining o'zidan ham iboratdir. Chizgi boshidan oxirigacha naturadan chizish orqali bajariladi. Xomaki esa nafaqat naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan, idrokdan, shuningdek, barcha usullarni ham qo'llab chizilishi mumkin.

Xomaki rasmlar ijrosining aynan shu hildagi usullari keyinchalik nafaqat umuman rasm chizishga o'rgatish, balki yuqorida aytib o'tilgan bo'lajak rassom uchun zarur bo'lgan sifatlar yiqindisini tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xomaki rasm va chizgilarga o'rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo'llaniladigan shaklan yaqin bo'lgan (yoki mazmunan shu kabi) obyektlardan foydalaniladi: 1) «o'lik» (tirik bo'lmagan) natura, (natyurmort) 2) o'simliklar, 3) hayvonlar, 4) inson.

Ta'lim uslubiyotini qisqa muddatli rasmlarda qurish uchun, ya'ni o'quv masho'ulotlari izchilligi va mazmuni va ularni hal qilish usullarini belgilab olish uchun har xil xomaki rasmlar ijrosining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib yetish kerak, va birinchi navbatda, qisqa muddatli rasmlar ijrosi bilan (xomaki va chizgilar) davomli rasmlar ijrosi usullarida o'rtasidagi farq nimadan iborat ekanligini bilib olish zarur.

Xomaki rasmlar va ularni bajarish usullari.

Idrok etishning «Umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka» tasvirlash usuli ta'lim jarayonida bosqichlar bo'yicha davomli o'quv rasmini bajarishda o'z tasdio'ini topadi.

Tasvirlanayotgan predmet shaklini umulashtirilishining so'ngi yakuniy bosqichi - qoo'ozga tushirilgan narsani yaxlit birlikka yio'ish va birlashtirishdan butun rasm bo'ylab aniqlik kiritish va nur soya nisbatlarini bitta yaxlitlikka keltirish, ya'ni tasvirlanayotgan shakl va ana shu shakl turgan kenglikni tutashtirishdan iboratdir.

Naturadan uning o'ziga xos xususiyatlari bilan qisqagina xomaki rasm chizib olish asosan tez ko'rish va idrok qila bilish qobiliyatlarini o'stirish uchun mo'ljallanadi.

Kuzatish, idrok qilish va xomaki rasmini ijro etishlar ko'p hollarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Shuning uchun xomaki rasm ustida ishlashning yakuniy bosqichi sifatida umumlashtirish haqida alohida gapirishga to'o'ri kelmaydi.

Xomaki rasmlar chizishda foydalaniladigan usullarni farqlash xomakilarning oltita turini belgilab olish imkonini beradi. Xomaki rasmlar va ularning turlari quyidagilardan iborat:

- naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha bevosita ijro etiladigan xomaki rasmlar;

- kombinasiya usuli (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz – xotira bo'yicha) bilan ijro etiladigan xomaki rasmlar;

- faqat xotiradan bajariladigan, ya'ni kuzatishdan keyin biror vaqt o'tgandan so'ng, ongda ko'rish qobiliyati musthkamlanganidan keyin chiziladigan xomaki rasmlar;

- insoning avval ongida qabul qilingan ba'zi predmetlar, tirik obyektlar va atrof-borliq hodisalar haqidagi tasavvurlarni jonlantirish qobiliyati bilan boo'liq tasavvurlar bo'yicha ishlanadigan xomaki rasmlar;

-kompleks usul bilan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ish usullarini, jumladan tasavvur bo'yicha usullarini qo'llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar;

-hayolga keltirish bo'yicha – biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, syujet va xokazo predmet va hodisalar haqida o'z tasavvurlarini jonlantirib tiklash asosida dastlabki umumlashgan tasvirning xomaki rasmlari chizish.

Xomaki rasmlarning ikkinchi, uchinchi va beshinchi turlari bitta umumiy alomatlar bilan birlashadi, chunonchi: xomaki rasm chizish bilan bir vao'tda sodir bo'ladigan yoki xomaki rasm chizishdan sal oldin bo'ladigan naturani ancha yuzaki va tez kuzatish bilan yuzaga keladigan majburiy alomat bilan.

Agar bunda ijro vaqti cheklanmasa, u holda bunday naturadan chiziladigan xomaki rasm chizgiga aylanib qolishi mumkin.

Bu shart-sharoitlardan bittasi-naturani kuzatish va xomaki rasm ijrosi uchun vaqtning cheklanganligi yoki cheklanmaganligidir. Bu o'z navbatida naturaning qo'zo'almasligi yoki qo'zo'alish darajasi (harakat tezligiga)ga boqliq bo'ladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xomaki rasm chizish usuliga eng avvalo ikkita omil ta'sir qiladi: vaqt va naturaning holati.

Bu o'zaro bir-biriga boo'liq omillardan tashqari ijrochi va uning ishlash qobiliyatiga (binobarin, xomaki rasmdagi tasvir xarakteri va sifatiga) shuningdek tashqi obyektiv shart-sharoitlar ham ta'sir qiladiki, ularga rasm chizuvchi moslashishi kerak bo'ladi (sinf, hona yoki ko'cha, ishlab chiqarish yoki transport, jamoa joyi, sport maydonchasi, yo'lka, sayilgoh va xokazolar).

Naturadan kuzatish bo'yicha xomaki rasm chizish faqat bitta shart bilangina, ya'ni natura umuman qo'zo'almas, harakatsiz turgandagina boshidan oxirigacha bajarilishi mumkin.

Bunday qiyofa natura yeng avvalo, so'zsiz jonsiz predmet (masalan, san'at asarlari, haykaltaroshlik asarlari, me'morchilik inshootlari, bezaklar, sabzavot, meva, gul, daraxtlar, ba'zi manzara turlari, shuningdek maxsus qiyofa uchun turgan model (inson ham) bo'lishi mumkin.

Xomaki rasmning maqsadi naturani to'liqsiz umumlashtirilgan ko'rinishini aks ettirishdan iborat bo'lgani uchun rassom nisbatan ancha bamaylixotir ishlaydi. Agar maqsad amalga oshgan bo'lsa-yu natura hali qimirlamay turgan bo'lsa, u holda xomakilikdan chizgiga (lavhaga) o'tish mumkin. Bunda xatto qoqoz chetiga qo'shimcha, naturaning ba'zi bo'laklarini ancha batafsilroq chizgilarini ham chiqarsa bo'ladi (albatta, bunga zarurat tuo'lsa). Bunda: holatda vaqt omili ish xarakteriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar naturaning qo'zo'almasligi shartli va tasodif bo'lsa, ba'zi hollarda u vaqtinchalik bo'lsa, ya'ni natura istalgan paytda, rasm chizuvchi uchun no'malum bir soniyada o'z holatini, yuz qiyofasini, imo-ishorasini o'zgartirib qolsa va xatto nuqtai nazardan umuman yo'qolib qolsa u holda naturadan xomaki rasm chizishda ish xakteri jiddiy tarzda o'zgaradi. Bunday holat tasodflarga quyidagilarni keltirish mumkin: saylgoh o'rindio'ida o'tirgan kishi o'rnidan turib ketsa, yohud jimgina yotgan it birdaniga akillay boshlasa ushbu holat xomaki rasmini chizayotganda sodir bo'lishi mumkin.

Peyzaj xomaki rasmini (yoki chizgini) chizayotganda ob-havo yoki yoritilish holati o'zgarmasligiga ishonch hosil qilish kerak emas. Chunki, birdan shamol turib qolishi, tekis suv yuzasini to'lqinlar, osmonni to'satdan qora bulutlar qoplashi mumkin).

Tabiatda tirik natura rassom ustaxonisidagi kabi yoki sinfdagi o'quv ishi kabi bir maromda turmaydi. U o'z hayotida davom etadi va uning tabiiy, vaqtincha qo'zo'almay turishi darhol, ba'zida esa kutilmaganda aks holat kasb etib qolishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, aynan tirik modelning bunday qo'zqalmas shartlari, ya'ni tinch, bamaylixotir qiyofa rassomning kuzatuvchan ko'zlari uchun eng qimmatlidir. Aksincha, bir hil holatda maxsus turgan tirik model doimo o'z ifodaliligini yo'qotadi, chunki har qanday holatda ham sun'iylik mavjud bo'ladi. Buning ustiga o'sha sizga qarab turgan siymo ham ohir-oqibat charchaydi, bu esa uning qiyofasiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Shuning uchun ham xomaki rasmda qo'zqalmas tirik modelni muhrlab qo'yish uchun rassom doimo shay turishi lozim. Ishlash uchun mavjud vaqt davomida kuzatish va xomaki rasmni bajarish uchun har bir daqiqa, xatto har bir soniyadan unumli foydalanib qolish zarur bo'ladi. Shuning uchun usta rassomlar xomaki rasmlarni ishlashda "qisqa", "juda tez", "bir nigohda", "yashin tezligida", "bir zumda" tasvirlash kabi so'zlarni ishlatishlari ham bejiz emas.

Xomaki rasm chizishning muayyan maqsadi kuzatish natijasini bir zumda qoqozga aks ettirishdir.

Sinfdagi masho'ulotlarda, ayniqsa xomaki rasm chizishga o'rgatilayotgan dastlabki paytlarda o'quvchilar kuzatishga ham, rasm ijrosi uchun ham doimo yetarli vaqtga ega bo'ladilar.

Lekin sinfdan tashqari paytda xomaki rasm ustida ishlash, ya'ni bir vaqtning o'zida ham kuzatish, ham chizish paytida (xatto muhim turgan natura ustida ishlanayotganda ham) to'satdan uzilib qolishi mumkin. Ba'zan rassom tezroq o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi, bir varaqqa naturaning tipik hamda xarakterli xususiyatlarini darhol aks ettira qolishga harakat qiladi. Kuzatish vaqti ijro vaqtiga to'o'ri kelib qoladi. Ana shunday holatda naturani ko'rish idroki bilan, ijro etish keskinlashadi. Ya'ni e'tiborni chalo'itmay turib mayda, ikkinchi darajali ikir-chikirlarga berilmay, darhol predmetning yeng asosiy zarur tomonlarini ilo'ab olishga, yeng oddiy vositalardan minimal darajada foydalanishga harakat qilinadi.

Eng avvalo, bir nechta ishonchli chizgilar bilan, (yoki tus beruvchi doo'lar bilan) bo'lajak tasvirning o'rni va o'lchamini- uning abrisini belgilab olish zarur. Ana shunga qarab asosiy qismlari, konstruksiya va harakatlarini hisobga olgan holda naturaning butun massasini tushurib olish kerak.

Agar natura o'z qo'zo'almas holatini saqlab turgan bo'lsa, darhol belgilangan fikrlarni detallashtirishga kirishmoq, eng asosiy, xarakterli xususiyatlarni tezroq ilo'ab olmoq zarur.

Kombinasiyalashgan (dastlab naturadan, keyinchalik xotira bo'yicha) xomaki rasmlar chizish.

Natura harakatiga kela boshlashi, o'z holatini o'zgartira borishi bilan va rassom ko'zidan iz qola boshlashi bilan ana shu xomaki rasmni nihoyasiga yetkazish uchun xotiradan ko'rish qobiliyatingizni ishga solishi to'o'ri keladi.

Naturadan boshlanib, so'ngra uning ishtirokisiz xotirada tugallangan xomaki rasm "Kombinasiyalashgan" hisoblanadi.

Kuzatish vaqtining qisqarishi enda xomaki rasm ustida ishlashni ham murakkablashtiradi va xotiraga zo'r berishni talab qiladi. Bunday holatlar amaliyotda juda ko'p uchraydi.

Xotiradan chiziladigan xomaki rasm chizish.

Uzluksiz, doimiy harakatda bo'layotgan natura holatini bri zumda aks ettirish ancha mushkul. Bunday paytda hammasini birdan nazardan qochirmay ilo'ab olish va darhol, hyech kechiktirmay xotirangizga muhrlanganni qoo'ozga tushirish zarur. Ana shunda xotiraga muhrlangan ko'rinish o'z "yangiligini" yo'qotmaydi. Bunga misol qilib oldingizdan tez yugurib o'tayotgan yoki to'siqlar osha sakrab yugurayotgan sportchini ko'rishimiz mumkin. Bunday vazifani uddalash amalda mumkin. Buning uchun o'ta tez, bir nigohda harakatdagi ifodani ilo'ab olish kerak bo'ladi (masalan, yugurib borayotgan sportchining gavdasi, oyoqlari bosh va qo'llari harakati). Lekin bu o'rinda xomaki bajarilgan chiziqlarni bir yerga to'plash, ya'ni komponovkalashni unutmaslik kerak.

Ko'rish qobiliyati kuchli bo'lganda, juda qisqa ba'zan esa bir soniyada xotiraga muhrlanadigan detallarni ham umumlashtirib yuzaga chiqarish mumkin.

Ana shu tarzda ijro etilgan xomaki rasm xuddi qoqozga muhrlangan xotira kabi bo'ladi. Bundan keyingi endi uning vazifasi-ko'rilgan narsa haqida eslatishdan bo'lak narsa emas.

Bunday xomaki rasmlarga tuzatish va qo'shimchalar kiritish faqat boyagi sportchining harakati takrorlangandagina (deyarli bir xil harakat), yana xotiraga olish yo'li bilan bajariladi.

Faqat ko'rib xotirada saqlash qobiliyatiga tayangan holda xomaki rasm ustida ishlash zarurati faqat tashqi shart –sharoitlar kuzatish imkonini beradigan

vaziyatlardagina tuo'iladi. Masalan: shahar transportida sizning qarashingizda o'tirgan yo'lovchining boshi siz o'ylab qo'ygan kartina personajiga o'xshaydi va siz anchadan beri qidirib yurgan obyektiniz chiqib qoladi. Uni naturadan chizishning iloji yo'q, chunki u o'z nigohini olib qochishi, boshini burishi yoki qiyofasini o'zgartirishi, shuningdek transportdagi vaziyat to'o'ridan to'o'ri naturadan chizish imkonini bermasligi mumkin va xokazo.

Siz o'z oldingizga qo'ygan vazifalarni hal qilish uchun boshqa yo'lni tanlashingizga to'g'ri keladi. Buning uchun ko'rish qobiliyatingizni ishga solasiz: naturangizga sezdirmay uni kuzatasiz, o'rganasiz, xarakterli o'ziga xos xususiyatlarini (ayniqsa undagi ajralib turadigan xarakterli xususiyatlarini) eslab qolishga harakat qilasiz. Yo'lovchi o'z bekatida tushib ketdi. Shunda darhol, hyech ham kechiktirmay cho'ntak albomingizni olib (aks holda xotirangizdan ko'tarilib ketishi mumkin) o'sha yo'lovchi holatini qanday eslab qolgan bo'lsangiz, shundayligicha xotiradan xomaki rasmini chizib olasiz.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin rassom ko'rish xotirasini rivojlantirishi uchun harakatdagi odam, ayniqsa o'z xarakteri va harakatlanishi tezligi har xil bo'lgan bir guruh odamlarga qarab xomaki rasmlar chizishni talab etadi.(masalan, basketbol, futbol, xokkey kabi sport o'yinlari vaqtida, hayvonot boo'idagi hayvonlarga qarab xomaki rasmlar chizish foydadan xoli emas.

Shuni nazarda tutish kerakki, kuzatish natijasida esda qoladigan obrazning sifatiga, uning barqarorligiga ko'plab sabab va vaziyatlar ta'sir qiladi. (idrok qilishning takrorlanishi, kuzatish faolligi va tezligi, shuningdek, zarurat tuqilganda ko'rilgan narsani eslab qolish qat'iyligi). Ayniqsa qisman biror holatda (yoki sxematik ko'rinishda) naturadan qoqozga tushirilgan chizgini diqqat bilan kuzatgan va o'rganilgan narsa xotirada yaxshi saqlanib qoladi. Ko'r-ko'rona, hyech qanday tahlilsiz, faqat ko'chirib qo'ya qolingan narsa odatda xotirada uzoq saqlanmaydi.

Tasavvur qilib xomaki rasm ishlash.

Tasavvurda xomaki rasm chizish naturani bevosita kuzatish bilan boqliq emas. U avval idrok qilingan, predmet olami va ongda muhrlanib qolgan hodisalar asosidagina ijro etiladi. Idrokka (qabul qilishga) nisbatan tasavvur yanada umumiyroq xarakterga ega. Ularda tafsilot kamroq bo'ladi va faqat predmet va hodisalarning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham tasavvurda chizilgan xomaki rasm "o'zidan chiqarib" iborasiga yaqin va o'zining mantiqiyiligi, bilan bevosita naturaga qarab chizilgan xomaki rasmdan farq qiladi.

Tasavvurda rasm chizayotgan kishi uni qamrab turgan vaqt va natura holati kabi omillardan xoli bo'ladi. U bamaylixotir, butun diqqat-e'tiborini xomaki rasimga qaratib ishlashi, zarur ifoda va tasvirning ishonchligiga erishgan holda faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Eng oddiy vazifa – polda turgan oddiy stul rasmini tasavvurda chizish masalasini hal qilish uchun u ana shu stulning shaklini, uning konstruksiyasini va asosiy o'lcham nisbatlarini eslay olish lozim.

Xo'sh, qayerdadir yuqorida va pastki nuqtai nazardan ko'rinadigan xuddi ana shu stul qanday ko'rinishiga ega bo'ladi? Predmet shaklining qurilishi qancha murakkab bo'lsa, ma'lumki, uni "o'zidan chiqarib" tasavvurda chizish ham shunchalik qiyin kechadi.

Rasm chizuvchi ongida (tasavvurida) predmetning kenglikdagi obrazini tiklash vazifasi turadi. Bunday tiklash jarayoni nafaqat predmet shakli haqidagi tasavvurni, balki uning qurilishi, nisbatlari, harakat yo'nilishi va tezligi kabi boshqa kenglikdagi nisbatlarini ham o'z ichiga oladi.

Masalan, agar odam qaddi-qomati kabi murakkab tirik shaklning naturasiz, o'zidan chiqarib xomaki rasmini (aytaylik bo'lajak kartina eskizi uchun) umumlashgan holda chizadigan bo'lsak, buning ustiga bu tasavvurdagi naturamiz tez harakatda, burilishda yoki boshqa holatda (aytaylik, cho'qqidan tezlikda tushib kelayotgan chano'ichi) bo'lsa-vazifa ancha murakkablashadi.

Xomaki rasm ijrosidagi oldin xotirada tasvir obrazini, uning qurilishini tasavvur qilish, umuman ushbu shakl ma'lum nuqtai nazardan qoo'ozga qanday

o'lchamni egallashini ko'z oldimizga keltirishimiz kerak bo'ladi. Faqat shundan keyingina, odamning plastik anatomiyasini xaqidagi bilimlarni xotiraga olib, "o'zimizdan chiqarib" bir varaq qoo'ozga harakat qalamsini belgilab olgandan keyingina, buning ustiga gavda, bosh, oyoq-qo'llar nisbati, ularning o'lchamlarini, harakat paytida qisqarish proporsiyalarini, yoritilish holatini hisobga olgan holda chizishni boshlash mumkin.

Ma'lumki, inson qaddi-qomatining "o'zidan chiqarib" xomaki rasmini chizish faqat inson tanasining qurilishi haqidagi bilimlar yetarli bo'lgan taqdirdagina yaxshi amalga oshishi mumkin. Bunday bilim va ko'nikma esa faqat inson tanasini doimiy kuzatish va natura hamda tasavvur va xotiradan qisqa chizgilar chizish, shuningdek yalono'och va kiyimdagi modellardan muntazam ravishda foydalanish bilangina erishish mumkin.

Shuningdek, inson tanasining bosh, qo'l, oyoq kafti suyaklari kabi murakkab qismlaridan qilingan mashqlar ham yaxshi natijalar beradi.

Har qanday holatdagi va tez harakatlanayotgan inson tanasini "o'zidan chiqarib"(naturasiz) erkin va ifodali tasvirlay bilish faqat insonning plastik anatomiyasini, birinchi navbatda, skelet qurilishi va skelet mexanizmi harakatlarini yaxshi bilish natijasida "naturadan" va "xotiradin" qilingan xomaki rasmlarda mashq va yanada ko'proq mashq oqibatida yuzaga keladi.

Tassavurda qilingan o'quv xomaki rasmlar insonning har hil xolatlarda, ya'ni harakatsiz va harakatlanayotgan holatlarini tasvirlash malakalarining to'ldirilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xomaki rasmlarni tasavvurda bajarishga o'rgatishga davomli o'quv vazifalaridagi o'tilgan mavzularning o'zlashtirilishini tekshirib ko'rish uchun yordamchi mashqlarga ko'p o'rin ajratiladi.

Bunday tasavvur bo'yicha xomaki rasmlar chizishning tekshiruv mashqlari o'quvchilarda "o'zidan chiqarib" ishonch bilan chizishda muhim qobiliyatni rivojlantirishga so'zsiz ko'mak beradi. Ayniqsa bu hol maqsad qilib qo'yilgan yangi va yangi qirralar tobora murakkablashib borganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tasviriy san'atning hamma tur va janrlarida tasavvurda xomaki rasm chizishning asosiy vazifasi – badiiy obraz yaratish ishida turtki bo'ladigan ko'mak, yordam ko'rsatishdir.

Naturasiz ishlanadigan xomaki rasmlar (ya'ni "o'zidan chiqarib") murakkab ijodiy fikrni yuzaga chiqarish uchun eng qulay texnik vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham tasviriy san'atga o'rgatishda tasavvurda xomaki rasmlar chizish borasida o'quv dala amaliyotlarining ahamiyati kattadir.

Kompleks xomaki rasmlar (barcha usullarni qo'llagan holda).

Eng so'ngi va eng murakkab o'quv xomaki rasmlar turi bu – kompleks usulda bajariladigan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullarni hammasidan qisman foydalangan holda (naturadan, kombinasiyalashgan yoki dastlab naturadan, keyin xotiradan, shuningdek faqat xotiradan va tasavvurdan) ijro etiladigan xomaki rasmlardir.

Kompleks usulni qo'llash zarurati asosan ko'pgina bir vaqtning o'zida harakatlanayotgan obyektlardan xomaki rasm chizishda paydo bo'ladi. Binobarin, bir guruh odamlar, ayniqsa xomaki rasmda guruhni tashkil etadigan odamlarning o'zaro joylashuvini xomaki rasmda qidirish va o'z o'rniga qo'yishda bu usulga murojaat etiladi.

Kompleks xomaki rasm chizishga o'rgatish rasm darslarida o'tkaziladi. Lekin amaliyotda u "Kompozisiya" o'quv kursida ko'proq qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu xomaki rasmlarni shartli ravishda "Kompozision" deb atash ham mumkin. o'z ijro usuliga qarab ular u yoki bu holatda naturani kuzatish bilan boqliqdir. Shuning uchun ularni hayolan ijro etiladigan badiiy obrazning kompozision yechimi- xomaki –eskizlar bilan chalkashtirish kerak emas.

Hayolan xomaki rasmlar chizish.

Hayolan xomaki rasmlar chizish-bu juda umumlashgan xomaki rasm – eskiz bo'lib, unda badiiy tasavvurning muayyan grafik natijasi sifatida paydo bo'ladigan badiiy obraz gavdalanadi.

Rassom xayoloti obyektiv borliqdagi predmet va hodisalar haqidagi olingan tasavvurlari va undagi idrok etish zahirasiga asoslangandir. Rassom o'z hoxishiga qarab bu tasavvurlarni qayta va qayta shakllantirib, ularni kombinasiyalab, ular o'rtasida boo'lanish yasab yoki ularni bir-biriga zid qo'yib badiiy obrazning bir butunligiga, maksimal darajada ifodaliligiga erishadi.

Tasavvurlarning o'zi yetarli darajada umumlashgan bo'lganligi sababli ham xayolot kuchi bilan qayta ishlangan xotirotlar idrok etish obyektidan ancha uzoqlashadi, lekin shu bilan birga u o'zining realistik tasvir uchun zarur bo'lgan alomatlarni saqlab qoladi.

Tasavvur qiling, bir-biri bilan yagona harakat yoki biror oddiy syujetda ifodalangan mazmun bilan boqlik ikki kishini "o'zidan chiqarib" (tasavvurda) tasvirlashdek oddiy vazifa ham tasavvur qilish, xayolotga berilishni talab etadi.

Mazmunning ma'no va mohiyatiga chuqur ta'sir qiladigan, ya'ni tasvir ifodasiga ta'sir qiladigan ikki shaklning o'zaro joylashuvi va ichki boqlanishi kabi juda ko'plab har xil variantlar tuqilishi mumkin.

Eng yaxshi variantni qidirib topishda ularni o'zaro bir-biri bilan taqqoslash zarur bo'ladi.

Rassom o'zi o'ylab qo'ygan ijodiy fikri uchun muayyan yorqin javob olishi kerak bo'lsa, xomaki rasmning asosiy alomatlari—uning umumiydashgani, mantiqiy jihatdan to'qriligi kabilar katta ahamiyat kasb etib qoladiki, ular tashqaridan qaraganda go'yo tugalsizdek ko'rinadi. Vaholangki aynan ana shu tugalsizlik badiiy tasavvurning keyingi faoliyatiga ko'proq turtki bo'ladi, muallifni ko'proq ifodalikka undaydi.

Tugallanmagan xomaki rasm topilgan yechimga dastlabki fikrga muvofiq tez va yaqqol ishonch hosil qilish, unchalik qiyinchiliksiz yaxshilash tomonga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Bunda kiritiladigan o'zgaritirishlarni avvalgi variatlaridagi bilan solishtirish uchun aynan ana shu xomaki rasmga kiritish ham mumkin bo'ladi.

Nihoyasiga yetkazilgan rasmdagi biror qismni texnik jihatdan o'zgartirish, qo'l yoki oyoqni biroz bo'lsada surish, tana yoki boshni biror tomonga burish, tana harakatini kuchaytirish anchagina qiyinlik tuo'dirishi ma'lum.

Qalamda yengilgina ishlangan xomaki rasmda esa bu ish unchalik qiyinlik tuo'dirmaydi. Chunki bunda avval belgilab qo'yilgan narsani o'chirish yoki yo'q qilish zarurati tuo'ilmaydi. Oddiygina solishtirish bilan badiiy fikrning yangi, yanada ifodaliroq variantini topish imkonini beradi. Xomaki rasm-eskizni muddatidan oldinroq tugatib qo'yish keyingi ishga halaqit beradi, tasavvurni toraytiradi.

Davomli va uzoq muddatli rasm chizish bilan bir vaqtda tirik odam boshidan muntazam ravishda homaki rasm va chizigilar qilish zarur. Bunday homaki rasmlar nafaqat odam boshini tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, balki tasvirda real hayotni tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham zarur.

Realist-rassom insonni harakatda, uning barcha go'zalliklarini tasvirlay olishi kerak. Davomli rasm ustida ishlash talabani yordamchi chiziqlar, o'q chiziqli, konstruktiv asoslar yordamida tasvirni diqqat bilan va metodik bosqichlarda tasvir qurishga majbur etadi. O'quvchi davomli o'quv rasmda asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvir kurishning qonuniyatlari va qoidalariga qaratadi. Binobarin, u o'quv-akademik rasmda bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvida amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm o'rtasidagi farqni ocha borib ular turli yo'nalishga ega ekanliklarini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasm bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun yaratiladi. Ijodiy rasmda esa aksincha-olingan bilim va ko'nikmalardan badiiy obraz yaratish uchun foydalaniladi. Shuningdek avval olingan bilim va malakalar asosida yangilik yaratadi.

Xomaki rasm ham olingan bilim va malakalar asosida yaratilib, rasmda endi o'quvchidan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirilganda ularning vazifalari, maqsad va yo'nalishlarini to'liq aniqlab olish kerak. Ko'pincha «xomaki» tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi, shaklning chiziqli-konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboradilar. Bu albatta to'liq emas.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylik va har xil ishlanishda bo'lishi mumkin: ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va xokazo.

Xomaki rasm-bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u o'quvchini tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, rasm chizuvchini uncha mohiyati bo'lmagan narsalarni chetga chiqarib tashlab, asosiy narsaga qaratadi.

Xomaki rasm o'quvchida mustaqil ishga bo'lgan tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Xomaki rasmlar talaba tasviriy savodxonligi qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi buyuk ustoz rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv – akademik rasm chizish vazifalarida xomaki rasmlar ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi: Avval o'tilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish-bu tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm – bu avval olingan bilimlarni hisobga olgan holda natura bilan buyum haqidagi mantiqiy fikrlashdir. Rasm chizuvchi xomaki rasm chizish davomida ushbu natura haqida, uning shakl qurilishi konstruktiv tuzilishi anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zahirasiidan foydalanadi.

Dala amaliyoti davrida o'quv mashg'ulotlarining eng ko'p mahsudorligiga talabalar aynan xomaki rasmlar chizishda erishadilar. Bunda ular ham naturani

o'rganish ham tasvirlashning butun texnik vositalaridan foydalana bilish tomonlarini namoyon etadilar.

Shuning uchun ham xomaki rasmlar agar rasm chizuvchi natura haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lganidagina foydalidir. Ma'lum vazifalar aniq yo'naltirilgan maqsad bo'lmasdan xomaki rasmlar chizaverish o'quvchini ijodan bezdirib qo'yishi mumkin.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinsiplarsiz bu ish maqsadsiz bo'lishi mumkin. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirish ma'lum bir uslubiy bosqichlikni taqazo etadi. Dastlab o'quvchilar uchun ancha yengil, o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Qisqa xomaki rasm va chizgilarda asosiy e'tiborni xarakterni ochishga, kishining obrazli xarakteristikasini ko'rsatishga qarating. Eng asosiysi davomli rasm va xomaki rasmga bo'lgan yondoshishni to'liq tushinishdir. Davomli o'quv rasmda biz akademik rasmning asosiy qoidalari – bosh shakli qurilishining konstruktiv tuzilish anatomik qonuniyatlarini o'zlashtiramiz; xomaki rasm chizishda esa insonning emosional holatini – tipajini illab olish talab etiladi.

Xomaki rasm ustida muntazam ishlash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkoniyatini beradi. Birorta rassom yo'qki, u o'zi bilan xomaki rasmlar uchun maxsus albom ko'tarib yurmagan bo'lsa. O'tmishning mashhur rassomlari o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor berganlar. Mashhur rassomlar doimo shuni ta'kidlaganlarki, rassom biror kunni ham o'tkazmay, garchi u bu maqsad uchun hech narsa bo'lmasa ham biror-bir narsaning rasmini chizishga undaganlar chunki u shogirdga keyinchalik juda katta foyda keltiradi. Hayotda biz bir-biriga aynan o'xshash odamni uchratmaymiz. Rassomning vazifasi ham individual xususiyatlarni illab olish, ushbu odam uchun o'zgacha bir xususiyatni topa bilishdan iboratdir. Shuning uchun ham ko'proq kuzating, ko'proq naturadan rasm chizing, muntazam ravishda xomaki chizgilar qiling.

Tasvirda inson yuzining hayotiy ta'sirchanligini bera olish realist rassom uchun o'ta muhimdir. Hozirgi kunning eng dolzarb vazifasi mohir pedagogni tarbiyalash ekan, inson tanasi, bosh shakliva atrofdagi barcha shakllarning rasmini chizishga o'rgatish tizimida xomaki rasmlar chizish ishiga jiddiy e'tibor berish lozim. Xomaki rasmlar va qisqa chizgilar boshlovchi rassomni ijobiy faoliyatga uzluksiz boo'lab qo'yadi. Ular o'quvchini mustaqillikka va o'quv mashq tasviriyl vazifalarni hal etishga o'rgatadi.

Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi rassomga ushbu odamga xos bo'lgan eng xarakterli xususiyatlarini ilo'ab olish, yosh rassomga badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. Muvaffaqiyat bilan hal etilgan o'quv vazifalar rasm chizish san'ati bilan qiziqishga, keyinchalik esa tasviriyl san'atni mukammal egallashga bo'lgan intilishlarga foyda bo'ladi.

2.3. Manzara ishlashda kompozitsiya ahamiyati

Xar bir san'at asarini yaratishda mazmun va g'oyaning asosiy yechimi eskizda o'z aksini topishi lozim. Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, narsalarni aniqlab olish lozim, mavzuda sodir bo'layotgan voqeaning markaziy qismini topish kerak. Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, xavo perespektivasi qonunlariga asosiy va ikkinchi darajali gurux xususiyatlariga, kolorit tanlashga aloxida axamiyat berish o'rinlidir. Kompozitsiya tuzilishini topish uchun naturadan - odamlar guruxidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur. Chunki o'tkir qobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyani» shakllantirish aynan shu jarayonda sodir bo'ladi. Bu ijodiy jarayondagi o'ziga xos ko'nikmalarni xosil qilish uzoq vaqt mashq qilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya-bu muallifning ijodiy, badiiy ifodasi, maxsuli xisoblanadi. Shunday ekan tasviriyl san'atning barcha janrlarida kompozitsiya

yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka xamda qobiliyat, salohiyatni talab etadi. Shu bois bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq keng qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

O'zbek tasviriy san'atida maishiy janr XX asr 20-yillarini ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. 1926-yili Toshkentda AXRR (Assotsiatsiya xudojnikov revolyusionnoy Rossii)ning filiali tashkil etildi. Assotsiya janrni rivojlanishida muxim rol o'ynadi. Tashkil etilgan ko'rgazmalardagi ishlar rassomlarda qoniqish xosil qilmadi. Ular xayotda bo'layotgan o'zgarishlar mexnatkash xalqning tabiatga, yerga bo'lgan munosabatini sinchiklab o'rgandlar.

Ko'rgazmalarda U.Tansiqboev, A.Toshkentbayev, B.Xamdamiy, L.Abdullaev va A.Roziqovlar qatnasha boshladilar. Yangi nomlar paydo bo'ldi, rassomlar tomonidan asarlarning saviyasi o'sib, ijodlari rivojlana bordi. Rassomlarni ko'p figurali kompozitsion tasvir va rang vositalari qiziqtirdi. Shu tariqa 20-30-yillarda O'zbekistonda maishiy janr shakllanib, rivojlandi. Ana shu davrda samarqandlik rassom L.Bure, o'zining ijodiy va pedagogik faoliyatini boshladi. Uning dastlabki (1928y.) kompozitsiyalari «Tandir quruvchilar», «Buxoroda Nodir Devonbegi xavuz suv tashuvchilari» bo'lsa, 1930-yillarda «Maktab qurilishi», «Paxta terimi» kabi iborat rasmlar yaratdi. Sxematik chizgi tasvirlarda nuqsonlar mavjud, lekin taxminiy ranglar ifodasi kartinani xayotiy etib ko'rsatadi.

Rassomlarning keksa avlod vakillaridan biri Aleksandr Volkovdir. Dastlabki ijodiy izlanishlaridagi formalizm yo'lidan qutulib, xayotni realistik tasvir uslubiga qaytadi. U ko'p asarlarida inson obrazini, yangi xayotni jozibali ranglarda tasvirlaydi. Uning 20-30-yillarda yaratgan: «Choyxonada», «Eski shaxar choyxonasi», «Anorli choyxona» asarlari shular jumlasidandir. Choyxonada choy ichish, bu inson qalbini yumshatib suxbat qurish. xayot muammolari bilan o'rtoqlashishga, yaqin muloqotda bo'lish uchun muxim ma'naviy extiyoj makoni. U, shuningdek, Respublikaning

yangi qurilish ob'ektlarida bo'lib, «Qurilishda», «Paxta terimida», 1933-1934 yillarda «Brigada majburiyat qabul qilmoqda», «Xosil» triptix, «Sbor ekskavatora», «Chirchikstroy», «Tashselmash» asarini yaratdi. U o'z asarlarida mexnatkash inson xayoti, uning mexnatini, Respublikada rivojlanayotgan industriya qudratini aks ettirdi.

O'zbek tasviriy san'atining siymolaridan biri Baxrom Xamdamiydir. U 1935-yilda Toshkent rassomchilik texnikumini imtiyozli diplom bilan tamomladi. Rassom A. Volkov, M. Kurzin, O.Tatevosyan kabi ajoyib rassom - pedagoglardan ta'lim oldi. O'sha vaqtda tuzilgan A.Volkov rahbarligidagi ijodiy brigadalardan biriga Baxrom Xamdamiy xam kirgan edi. Brigadada u Tansiqboyev, N.Koraxon, A.Podkovrov, A.Toshkanboyevlar bilan do'stlashib Respublika bo'ylab ijodiy safarda bo'ldi, yig'ilgan materiallar kelajak ijodiga zamin yaratdi. Xayotdagi o'zgarishlar, xalqning mexnatdagi muvaffakkiyatlari rassomni ijod qilishga ilxomlantirardi. Xar bir kartinani yaratishda sidqidildan, muxabbat bilan yondoshardi. 1936-38 yillarda yaratgan «Choyxonada oqshom», «Sevimli qo'shiq», «Tasvir to'garagi» kabi kartinalari shu mexnatning samarasidir. 1936-yilda bir gurux, yosh rassomlar qatori u Moskva va Leningraddagi Davlat Tretyakov galereyasi, Pushkin nomidagi Davlat Tasviriy san'at muzeyi, Davlat Ermitaji, Rus muzeyida rus va G'arbiy Evropa san'ati durdonalari bilan tanishishga muvaffaq bo'ldi. Rassom 1939-yilda «Ish tugaganda» deb atalgan kartinasini yozib tamomladi. Bu asar 1940-yil Respublika ko'rgazmasiga qo'yildi va mutaxassislar tomonidan o'zining badiiy jixatdan O'zbekiston rassomlarining maishiy mavzuda yaratgan asarlari ichida birinchi va eng yaxshi asar sifatida tan olindi.

Kartina qaxramonlari- O'zbekiston kishilari, xalq qurilishining kamtarin baxodirlari. Oldimizda o'zaro suxbatlashayotgan bir gurux kanal quruvchilari yirik planda gavdalangan. Rassom o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini yaxshi bilgan. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi tabiiydek bir butun tarkibiy yaxlit, rassomga yaxshi tanish, yosh quruvchilarning oftobda

qoraygan, bronzadek qomatlari xam, keksaroq erkakning yashil zangori kiyimlari abxazcha kigiz qalpoq kiygan ishchining elkasidagi beqasam to'ni xam, choshgoxdagi kalta soyalar xamma-xammasini rassom ishonarli jonli bo'yokdarda yaxlit va yakka detallarning uyg'unligini xis qilib tasvirlay olgan.

Rassom 1941- yilda «Farxod Xisrav asrligida» kartinasini yozib tamomladi. Bu polotno buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishi munosabati bilan yaratilgan edi. Xamdamiy bu kartinada o'tkir shoirona tafakkurini, iste'dodini, maxoratini namoyish qilgan. Rassomning bu kartinasi o'zbek dastgoxli san'atining Navoiy asari misolida yaratilgan namuna asar bo'lib qoladi.

Nadejda Kashinani dastlabki yaratgan «Paxta terimida» asari 1930-yillarga to'g'ri keladi. Kashinani asosan mexnatkash o'zbek xotin-qizlarining xayoti, mexnati, quvonchi, taqdiri qiziqtiradi. Ular yashab mexnat qilayotgan quyoshli o'lka, inson qo'li bilan yaratilayotgan bunyodkorlik ishlari rassomning asosiy mavzuidir. U yaratgan «Childirma chalayotgan qiz» (1945y.), «Tushki tanaffus»(1949y.), «Zvenoning yutug'i-- (1949y.) asarlari nafis, yorqin ranglarda ifoda etilgan, tomoshabinga shodlik va quvonch baxsh etadi. U asarlarida ayollarning ichki xissiyot va kayfiyatlarini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Uning asarlarini milliy rux bilan sug'orilgan maishiy kompozitsiya namunasi deyish mumkin. Xar soxada ijod qilgan ko'pgina passomlar o'zlarini maishiy janrda sinab ko'rganlar. G.Chernuxinning «Sharqona bozor --- (1978y), «Mexnat romantikasi» (1975 y), «Paxta» (1978 y), «Ko'k choy» (1972 y), V.Kovininning «Xirmonda», «Qurultoy kunlarida» (1969 y), V.Burmakinning «Oila», «Oq xalatli kishilar». R.Axmedovning «Qo'shiq» (1964 y.), M.Saidovning «Oila», «Askiya» kabi asarlari misol bo'la oladi.

Dastgoxli va kitob grafikasi xam tasviriy san'atning barcha turlari kabi kompozitsiyaning umumiy qonunlariga tayanadi. Dastgoxli grafika o'z xususiyatlariga ega bo'lib - shakl, masofa, chiziq, shtrix va kontur vositasida oq-qora tasvirda ifoda etiladi.

Kitob grafikasi XIX va XX asrga kelib rivojlana boshladi. Ayniqsa V.Favorskiy, D.Shmarinov, E.Kibrik, O.Vereyskiy kabi rassomlar klassik adabiyot asarlarini chuqurroq o'rganib kitob grafikasini yuksaltirdilar.

Kitob grafikasi bezagining muvaffaqiyatli chiqishi, rassomning qobiliyatiga, adabiyotni qanday taxlil qila olishga bog'liq. Maxorat cho'qqisini egallagan bezakchi rassomlar kitob mazmunini aloxida grafik asari darajasi yetkazadilar. Rassomlar D.Kardovskiyning yozuvchi A.Chexov «Kashtanka--», A.Griboedovning «Gore ot uma» va A.Benuaning, A.Pushkinning «Mis chavandoz» asarlariga ishlangan kitob bezaklari nixoyatda muvaffaqiyatli chiqqan.

Rassomning vazifasi shundan iboratki, u voqeani, adabiy obrazni, kitob mazmunini tasvir orqali tushunishga yordam berishi kerak. Kitob uchun ishlangan illyustratsiyalar shakl jixatidan dinamik, rangdor, ta'sir etuvchi, adabiy asarning tekst matnini jozibali qilib ko'rsatishga yordam berish lozim, Bolalar kitobiga ishlangan tasvirlar bolalarning uzoq vaqt eslarida qolib, ularning badiiy didlarini o'stiradi. Bezak jarayonida format va xarf ishlashda bolalarning yoshlari va talablarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Zarvaraq (kitobning ustki qismi) o'quvchilarga adabiy matnning ma'lum yo'nalishini tasavvur etishlari uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari kitobning ustki bezagi reklama vazifasini xam o'tashi mumkin. Muqova bezagi kitob mavzusining maqsadiga muvofiq bo'lishi uchun kitobning nomi, uni ifodalovchi tasvir, matn munosabatlari xamda uyg'unligi va birligiga ahamiyat berish lozim. Muqova bezagidagi kompozitsiya tuzilishi, mazmun va g'oyani kitobning QAYSI yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallanganligini belgilab berishi lozim. Kitob illyustratsiyasini tayyorlashda uning qanday asarligiga aloxida e'tibor berish kerak. Illyustratsiya grafikasi yaqin masofadan ko'rishga mo'ljallanadi. Kitob mazmuniga qarab tasviriy vositalardan foydalanish mumkin (u grafit, qalam, akvarel va xokazo). Badiiy obrazlar rassom qanday yo'nalishda va texnikada tasvir bajarish lozimligini belgilaydi.

Bir kitobda qalam tasvir, soya - yorug', shakl, xavo perspektivasi vosita bo'lsa, ikkinchisida ertak mavzusi odam va xayvon, o'simliklardan dekorativ tema usulida ifodalashi mumkin. Bilibinning «Qurbaka malika» ertak kitobining bezagini misol qilib keltirish mumkin. Kitob muqovasida Bilibin rus xalq naqshlaridan foydalanib, baliqlar, suv parilari tasvirini ritm qaytarilishida ustalik bilan tasvirlagan. Muqova o'rtasida eski rus xarfida sarlavxa joylashtirilgan Shrift xarakteri dekorativ tasvirga mos tushgan. Ertak illyustratsiyalari ornament shaklida tasvirlangan.

O'zbek kitob grafika san'atining rivojlanishi XX asrning 40-50-yillariga to'g'ri keladi. Kitob grafikasining ko'zga ko'ringan keksa vakillari V.Kaydalov, I.Ikromov, M.SHchirovskiylardir.

Keyingi paytda T.Muxamedov, A.Siglinsev, A.G'ulomov, M. Kagarov, Vaxitov kabi iste'dodli grafika san'ati rassomlari o'zlariga xos sermazmun ijodlari bilan o'zbek kitob grafikasi san'atining rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bezak san'atining asosiy qonun - qoidalarini o'rganishda albatta kitob grafikasi namunalarining mualliflari V.Kaydalov, M.Kagarov, T.Muxamedovlar bilan birga rus grafika rassomlari I.Bilibin, B.Kibrik, D.Shmarinov, D.Bisti asarlariga murojaat qilish mumkin. Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ko'p yillik ijod va tajriba natijasida shakllangan kitob grafikasidagi kompozitsiya bezagining qonun va qoidalari ko'plab rassomlar tomonidan tan olinib o'z ijodlarida qo'llab kelmoqdalar.

Manzara - tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy, maishiy asarlarda xam vosita- fon sifatida muxim rol o'ynaydi. Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.

Evropada manzara janri tarixi XVI - XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni xaqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E.Alekseyev tomonidan maxorat

bilan tasvirlangan. Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamining eng nozik, tipik xolatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. I.Levitanning «Oltin kuz», «Abadiy sokinlik uzra», I.Shishkinning «O'rmon yiroqliklari V.Meshkovning «Ural xaqida o'ylar» kabilar shunday asarlardandir.

Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiyatga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga xam murojaat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bunda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi. V.Vasnetsovning «Alyonushka» asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy go'zalligini, zamonasiga xos yangilik, o'zgarishlarni K.Yuon, YU.Pimeyev, Nisskiy kabi rassomlar xam o'z asarlarida tasvirlab berganlar.

Urushdan keyingi yillarda Respublikamizda muntazam tashkil etilgan xorijiy davlatlarning badiiy ko'rgazmalari, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiatni yangicha xis etish, yangicha talqin qilish xissiyoti paydo bo'la boshladi. O'zbekiston rassomlarining tabiat manzaralariga yana xam ishtiyoqi ortdi.

XX asrning 50-yillarida o'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboyev karvonboshi bo'ldi. Qishloq xo'jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. 1950- yilda «O'zbekistonda baxor», «Paxtani sug'orish» asarini yaratdi. Tongda esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatning uyg'onishi tomoshabinda quvonchli xissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Xayotning obyektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishining epik xolatlari yuzaga kelishi «Ona o'lka» asarida (1951 y.) o'z aksini topdi. Kompozitsiya echimini panorama usulida echish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa xolat cho'lni ochishga bag'ishlangan

«Taxyatosh» va «Issiq ko'l» nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir. «Qayroqqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V.Veymarn, O'.Tansiqboyev Moskva Izd. Iskustva 1958 y). Asar 1957- yili Moskvada sobiq, ittifoq ko'rgazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan. Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Qarshimizda katta keng gidroelektrostansiyaning qurilish panoramasi, orqasida bryuza rangli «Qayroqqum» dengizi istalgan kompozitsiya markazi xam gidrostansiya qurilishi namoyon bo'ladi. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi manzara asarida qayroqqum xaqiqatni poetik talqin etish mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tusalardagi kontrast pushti, tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatning bepoyon kengligidagi qaynoq xayot o'z aksini topgan. Dengiz satxidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi baliqlar rassom tomonidan juda katta maxorat bilan tasvirlab berilgan.

O'.Tansiqboyev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratdi. «Olmaliqda» (1958 i.), «Sement zavodi» (1960 i.), «Chorvoq GES qurilishida» (1969-1970 i.) asarlari shular jumlasidandir.

O'ral Tansiqboyev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlarni xam maxorat bilan tasvirleydi. U Sobiq SSSR Badiiy Akademiyasining muxbir a'zosi. O'zbek tabiat manzara san'atining kuychisi O'ral Tansiqboyevning ko'plab asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda.

40-50 yillardagi o'zbek manzara san'atining yana bir vakili Nikolay Qoraxondir.

Dastlabki ijodida qishloq xayoti, keng dalalar, yo'llar, mehnatkash xalq xayoti asosiy mavzu bo'lsa, keyinchalik yirik inshootlar, industriya manzaralaridan iborat bo'ldi. Uni xalqning farovon xayoti, mehnat jarayoni ko'proq qiziqitirdi. «Zavod trubalari» 1929 y, «Ishga ketayaptilar» (1934 y.) shular jumlasidandir.

50-yillarga kelib rassom ijodida tog' mavzusi asosiy o'rin egalladi. Ko'proq baxor, kuz, tabiatning ertalabki, kechqurun paytlarini dekorativ ko'k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Togning jo'shqin oxanglarini «Nanayga yo'l» (1954 y.), «Amu Daryoda» (1957 y.), «Elektrostansiya» (1957 y.) asarlarida tasvirlab berdi.

1958-yillarga kelib rassom ijodining yangi qirralari ochila boshladi. Buni «Gullayotgan vodiylar» asari misolida ko'rish mumkin. Baxor, tabiat bayram libosida. Binafsha rangli tog' fonida gullab turgan oq, pushti, sariq ranglardagi daraxtlar, bepoyon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go'zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti echimi asosiy rol o'ynaydi. Esayotgan mayin shabada tizma tog'lar, sariq, tilla rangdagi bug'doyzorlar bunga misol bo'la oladi. Sariq mayin tilla kaloritda yozilgan «Oltin kuz»(1962y), «Tog'da kuz» (1959y), «Oltin simfoniya» (1962 y), «Toshkentda kuz» (1967y) asarlarida Nikolay Qoraxon odil fikrli yetuk manzarachi rassom sifatida namoyon bo'ladi.

Rangli beqasamga o'ralgan tabiat qo'yniga berkingan tog' yonbag'ridan qishloq, quyosh nurida jilvalanayotgan daraxtlar orasidagi Burma yo'llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O'sha davrdagi keksa rassomlar O. Tatevosyan, M.Novikov, A.Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O'zbekiston tabiati va xayotda sodir bo'layotgan yangiliklarni aks ettirdilar. Z. Kovalevskaya, Z.Inog'amov, N.Qo'ziboyev, K.Bogaduxov, G.Ulko, M.Esin, N.Shurigin kabi rassomlar O'zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar. A.Rozikovning «O'zbek xovlisi» (1947y), «Sherdor xovlisida» (1950y)

«Samarqandda baxor» (1958y) kabi asarlari P.Benkov metodikasini yaxshi egallaganini ko'ramiz.

Rashid Timurov go'zal Samarqandni kuylagan yetakchi rassomlar qatoriga kiradi. U shu shaxarda yashab, ko'p asrlik qadimiy yodgorliklarni, gullagan bog'larni, xayotni sevib, tabiat go'zalligidan ilxomlanib ijod qildi. «Samarqand bog'lari» (1946 y. GMI), «Bibi-xonim maydoni, baxor» asarlarida sokinlik, xalqni bayramlarini tarannum etadi.

Samarqanddagi «Shoxi-Zinda», «Xazrat Xizir», «Ulug'bek madrasasi», «Afrosiyob» yodgorliklarini chiroyli tasvirlagan Rashid Timurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi xis etardi. U «Samarkand»(1958y GMI) asarida ko'rish nuqtasini juda to'g'ri topgan, panorama ko'rinishida tasvirdan yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi. Xar bir rassom, xar bir avlod o'z davrida manzara janrida xam o'zini sinab ko'radi, lekin hammalari manzarani yaxshi xis eta olmaydi. Manzarachi rassom bo'la olmaydi. Tabiatni vujudi bilan xis etib sevgan malakali rassomgina o'z xis-tuyg'ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko'plab kekxa avlod rassomlari bizga go'zal manzara asarlarini yaratib meros qoldirganlar. Ular yaratgan san'at asarlarining mazmunini, kompozitsiya tuzilishini ularning ish tajribalarini yoshlarga o'rgatib, ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rinlidir. 70-80 yillarda G.Abduraxmonov, F.Toxirov, R.Choriev, K.Bogoduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Xozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A.nuritdinov, O. Qozoqov, 3. Islomshikov, A, Mo'minov, A, Mirsoatov kabilar mustakil o'zbekistonning go'zal tabiatini madx etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: shaxar (me'morchilik),qishloq. (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoat qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularning har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi.

SHaxar manzarasida shaxar hayoti bilan bog'liq (me'morchilik) transport vositalari, odamlar, oromgox bog'lar xamda yer osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepoyon kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashki etadi. Sanoat manzarasi katta zavod xovlisi, suv ombori, ko'priklar, metro qurilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Baxor» kabi mavzudagi tabiatning nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish xolatini aks ettiruvchi, insonga olam – olam quvonch baxsh etuvchi asarni kuz oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish. Chizig'i, fazoviy masofa, format, perspektiva, ritm, kolorit, yorug'lik, refleksi, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir, rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi, rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlashda avvalo quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom kabi xolatlarning xarakterli xususiyatlarini sinchiklab kuzatish lozim.

Xajmni aniqlab, ufk chizigi, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra xavo va yerning tekislik nisbatlarini belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va narsalar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyaning bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritini aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyaning yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Qog'oz, karton, xolet, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun xayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchi va etyudlarni bajarish mashqlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq

bo'ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy ozuqa beradi ruxlantiradi, shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

Ikkinchi bob yuzasidan qisqacha xulosalar

Xar bir san'at asarini yaratishda mazmun va g'oyaning asosiy yechimi eskizda o'z aksini topishi lozim. Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, narsalarni aniqlab olish lozim, mavzuda sodir bo'layotgan voqeaning markaziy qismini topish kerak. Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, xavo perespektivasi qonunlariga asosiy va ikkinchi darajali gurux xususiyatlariga, kolorit tanlashga aloxida ahamiyat berish o'rinlidir. Kompozitsiya tuzilishini topish uchun naturadan - odamlar guruxidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur. Chunki o'tkir qobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyani» shakllantirish aynan shu jarayonda sodir bo'ladi. Bu ijodiy jarayondagi o'ziga xos ko'nikmalarni xosil qilish uzoq vaqt mashq qilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya-bu muallifning ijodiy, badiiy ifodasi, maxsuli xisoblanadi. Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka hamda qobiliyat, salohiyatni talab etadi. Shu bois bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq keng qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki ikkinchi bobda yuqorida keltirilgan fikrlar o'zining to'la ifodasini topgan.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga aylanib bormoqda.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Shunday ekan barkamol avlodni tarbiyalashda tasviriy san'at va uning tur hamda janrlarining xozirgi kundagi ahamiyati, rivojlanishi, ayniqsa portret janridagi ilg'or g'oyalarning yuksalishida bitiruv malakaviy ishining mavzusida keltirilgan izlanish va fikrlar ijodning yangicha g'oyalarini oldinga suradi.

“Endigi vazifamiz shundan iboratki, tasviriy san'atning milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madaniy namoyandalari, avvalo, shu qatori tasviriy san'at ustalari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoillarini odamlar ongi va qalbiga sindirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur.

Asrlar davomida orttirgan tasviriy san'at sohasida erishilgan va erishilib kelayotgan yutuqlar insoniyatning madaniy boyligiga yanada chuqur o'rnashib bormoqda.

Bundan shuni ko'rish mumkinki o'zbek musavvirlarining buyuk asarlar tarixda ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirgan nodir namunalar tajribalari asosida yaratilayotgan yangi san'at asarlari taraqqiyotga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mexnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'atni ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish xozirgi davrimizning eng muxim vazifalaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ish orqali ko'tarilgan muammo atroflicha o'rganildi bob va paragraflarda yoritib taxlil qilishga xarakat qilindi. Bu bajarilgan tarqiqot albatta o'z natijasini beradi deb o'ylayman.

Rassom – mutahassis tasviriyy san'atda kompozitsiya asoslari qonun-qoidalarini mukammal bilmog'I lozim.

Bitiruv malakaviy ishini yoritish davomida quyidagi hulosalar yuzaga keladi. Kompozitsiya asoslari insoniyat tarixida juda qadimdan yuzaga kelgan va rivoj topa boshlagan. San'at sohasida ijod qilgan insoniyatning buyuk ajdodlari kompozitsiyali asarlar yaratish sohasida bizga me'ros qilib qoldirgan ilmiy ijodqonunlari hozirgi davrga kelib ham insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qilmoqda. Shunga asosan zamonaviy davr talablaridan kelib chiqib, kompozitsiya qoidalari va asoslari xozirgi kunda tasviriyy san'atning barcha sohalariga yanada mukammal kirib bormoqda. Bu mavzuning bitiruv malakaviy ishida muhokama etilishi esa talabaning bilim olish jarayonidagi ilmiy va ijodiy fikrlarini yanada takomil bosqich darajasiga ko'tardi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalarga boshlang'ich kurslardan boshlab qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik kabi mutaxassislik fanlarining asosi bo'lgan boshlang'ich o'quv qalamtasviri mashg'ulotlari ham amaliy, ham ilmiy–nazariy jihatdan yaxshi o'qitilishi shart.

O'tmish tarixdan aniq ma'lumki, qadimda buyuk rassomlar tasvirlashning ilmiy asoslarini qo'llash natijasida, katta yutuqlarga erishganlar. Florensiya maktabi rassomlari, tasviriyy san'atni ilm qatoriga qo'yganlar va natijada, bu yerdan buyuk tasviriyy san'at ustalari yetishib chiqqan.

Buyumlarni o'ziga qarab tasvirlash – tasviriyy faoliyatning alifbosidir. Bu umumta'lim maktabi boshlang'ich sinflari o'quvchilaridan tortib, to oliy o'quv yurtlari talabalarigacha dasturilamal bo'lishi kerak. Yoshlar narsani o'ziga qarab chizish davomida tabiatdagi voqea–hodisalar, shakllarning konstruktiv tuzilishlarini tasvirlash qonun–qoidalarini o'rganadilar. Bularni talabalarga

o'qitishda didaktiv prinsiplarning asosiysi hisoblangan– ilmiylik prinsipi yetakchi o'rin egallashi lozim.

Men o'zimning BMIda qalamtasvir haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim, ishlash usullarini misollar keltirish bilan yoritdim. Shu bilan birga qalamda ishlashga doir bir nechta misollarni ko'rsatdim. Men o'z BMIda oldimga qo'ygan maqsadimga erishdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1 Islom Karimov YUKSAK MA`NAVIYAT – YINGILMAS KUCH , Toshkent “Ma`naviyat” 2008
- 2 O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. –T., 1997.
- 3 O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
- 4 O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
- 5 B.Boymetov Qalamtasvir T–2006
- 6 Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O‘zbekiston mimiatyurasi. T., “O‘zbekiston”, 2006.
- 7 B.T. Maxmudov. Rangtasvirda kompozisiya. T., 2009.
- 8 S.S.Bo‘latov. Rangshunoslik. T., O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009
- 9 Boymetov B., Abdurasulov R., Nurtoev O‘., Rajabov R. Tasviriy san’at. 5 – sinf uchun darslik. T.: “Ilm – Ziyo”, 2014
- 10 R.Hasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2004
- 11 B. N. Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. T., “ILM – ZIYO”, 2013
- 12 M. Nabiyeu. Rangshunoslik T., “O‘qituvchi”, 1995
- 13 N. Oyidinov. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. T., “O‘qituvchi”, 1997
- 14 S. Uralov. Mo‘jiza yaratish san’ati. T., “Mehnat”, 1996
- 15 R. Xasanov. Tasviriy san’at asoslari. T., G‘.G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009.
- 16 O‘zbekiston san’ati. “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001
- 17 N. Oyidinov. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. T., “O‘qituvchi”, 1997
- 18 S.F.Abdurasulov. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. T., “ILM – ZIYO”, 2011.
- 19 S. Abdurasulov B.Boymetov Chizmatasvir T–2004
- 20 Ten N.D. gips modellarining rasmi T–1994
- 21 Ростовцев Н.Н. Учебный рисунок М–1984

Internet saytlari:

1. **Ziyonet.uz** – O‘zbekiston respublikasi ta’lim tizimi portali.
2. **www.tdpu.uz**
3. **www.pedagog.uz**
4. **www.edu.uz**
5. **www.samdu.uz**
6. **tdpu-INTERNET.Ped**